

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OLIV TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

“OLIV TA’LIMNING NORMATIV HUQUQIY ASOSLARI”

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

(Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarining barcha yo‘nalishlari uchun)



☎ 71 202 01 20
✉ info@bimm.uz
🌐 lib.bimm.uz

Toshkent - 2026

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**“OLIY TA’LIMNING NORMATIV HUQUQIY ASOSLARI”
MODULI BO‘YICHA**

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

**(Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish
kurslarining barcha yo‘nalishlari uchun)**

Toshkent – 2026

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: **V.R.Topildiyev** – yuridik fanlari doktori, professor

Taqrizchi: **O.X.Narzullayev** - yuridik fanlari doktori, professor

O‘quv-uslubiy majmua oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	10
III.	NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MATERIALLARI	17
IV.	SEMINAR-TRENING MASHG‘ULOTI MATERIALLARI	62
V.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI	81



I. ISHCHI DASTUR

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Hozirgi vaqtda ta'limni rivojlantirishning jahon an'analari ta'sirida oliy ta'limga bo'lgan munosabatni o'zgartirish jarayonlari jadal ravishda davom etmoqda. Ta'lim har qanday mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish orqali barqaror taraqqiyotni ta'minlaydigan muhim omildir. Jahon ta'lim maydonida raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda dunyo OTMlari oldida juda katta jiddiy va o'z yechimini kutayotgan vazifalar turibdi. Ular nafaqat o'quv va ilmiy jarayonlarni tashkil etishda, balki innovatsiyalarni yaratish, iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatish, jahondagi asosiy muammolarni xalq etishda sog'lom raqobat muxitini vujudga kelishiga zamin yaratmoqda. Bu esa dunyo mamlakatlarining yetakchi oliy ta'lim muassasalari tomonidan strategik rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniq belgilab olish, strategik ahamiyatga ega bo'lgan normativ-huquqiy va me'yoriy-uslubiy xujjatlarni takomillashtirish, ta'lim tashkilotlarini rivojlantirishning uzoq muddatli dastur va konsepsiyalarni ishlab chiqish va oliy ta'lim tizimida o'z yechimini kutayotgan muammolarni bartaraf etish masalasini kun tartibiga qo'yimoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ga ko'ra mamlakatimizning oliy ta'lim sohasiida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Bunda yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishda: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'limga oid farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda Oliy ta'lim fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari kabi normativ hujjatlar amalda qo'llanilmoqda. Dastur doirasida berilayotgan mavzular oliy ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslarini har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o'rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: rahbar kadrlarni oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari bo'yicha bilimlarini takomillashtirish, normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llashdagi muammolarni aniqlash, tahlil etish, shuningdek, ularda oliy ta'limning normativ-huquqiy xujjatlari to'g'risida ko'nikma va malakalarni yangilash hisoblanadi.

Modulning vazifalari:

- oliy ta'limning normativ-huquqiy hujjati sifatida qonun hujjatlarini tahlil etish;
- oliy ta'limning normativ-huquqiy hujjati sifatida qonunosti hujjatlarini tahlil etish;
- tinglovchilarda normativ-huquqiy hujjatlarni amalda qo'llash ko'nikmasi va malakalarini shakllantirish;
- oliy ta'limga tegishli bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va tatbiq etish jarayonlarini tahlil etish;
- rahbar kadrlarda normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilish va ularni ijrosini ta'minlash madaniyatni shakllantirish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Oliy ta'limni normativ huquqiy asoslari” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- Oliy ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmunini;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'lim tizimiga oid farmonlari, qarorlarini;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta'lim tizimiga tegishli qarorlarini;
- Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining ta'lim jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishga oid buyruqlarini;
- Davlat ta'lim standartlari, ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalari, fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablarni, o'quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullarini **bilishi** lozim.

Tinglovchi:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta'lim tizimiga tegishli qarorlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- O'zbekiston Respublikasida ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini ochib berish;
- Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid buyruqlari, Davlat ta'lim standartlari, ta'lim yo'nalishlarining va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish;
- o'quv yuklamalarni rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish **ko'nikma va malakalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta’lim tizimiga oid farmonlari va qarorlari asoslarini o‘zlashtirish;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining buyruqlari asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish;
- Davlat ta’lim standartlari, Malaka talablari, o‘quv rejalar va fan dasturlar asosida fanning ishchi dasturini ishlab chiqish **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Oliy ta’limni normativ huquqiy asoslari” moduli ma’ruza va seminar-trening mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o‘tkaziladigan seminar-trening mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, blis-so‘rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interfaol ta’lim metodlarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Oliy ta’limni normativ huquqiy asoslari” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyat rivojining ma’naviy asoslari, “Oliy ta’lim tashkilotlarida korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish” kabi modul bilan uzviy bog‘langan holda rahbar kadrlarining meyoriy-huquqiy hujjatlarni amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha kasbiy tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim va tarbiya jarayonlarini normativ-huquqiy asoslarini o‘rganish, ularni tahlil etish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	seminar-trening
1.	Oliy ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiy tavsifi.	2	2	
2.	Oliy ta’lim sohasiga oid qonunosti hujjatlari va ularning mazmuni.	2	2	
3.	Malaka talablari, o‘quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablarni takomillashtirish mexanizmlari.	2		2
4.	Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga oid buyruqlari.	2		2
Jami:		8	4	4

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Oliy ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiy tavsifi. (2 soat).

Oliy ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiy tavsifi. Oliy ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ - huquqiy hujjatlar tushunchasi. Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari. Normativ huquqiy hujjatlarga qo‘yiladigan talablar. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. Ta’lim jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.

2-mavzu. Oliy ta’lim soxasiga oid qonunosti hujjatlari va ularning mazmuni. (2 soat).

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uning mohiyati. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta’lim tizimiga oid farmonlari va qarorlari. Oliy ta’lim sohasiga oid qonunosti hujjatlari va ularning turlari. Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar. Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga oid buyruqlari. Davlat ta'lim standartlari, ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablar. O'quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullari. OTMlarning lokal hujjatlari (Ustav, Ichki tartib qoidalar).

Meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlari. Ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlarini ishlab chiqish. Xorijiy tajribalar asosida Malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish.

SEMINAR-TRENING MASHG'ULOTLARI MAZMUNI

1-mavzu: Malaka talablari, o'quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablarni takomillashtirish mexanizmlari. (2 soat).

Ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlarini ishlab chiqish. Xorijiy tajribalar asosida Malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish.

2-mavzu. Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga oid buyruqlari. (2 soat).

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining Davlat ta'lim standartlari, ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablar va o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishga oid buyruqlari.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modulning ma'ruza va seminar-trening mashg'ulotlarini o'qitishda quyidagi shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruza mashg'ulotlari (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- seminar-trening mashg'ulotlari davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

A decorative vertical bar with a white outline and a dark orange fill, positioned to the left of the title text.

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

“KWLH” методи

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qoʻllaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu boʻyicha qoʻyidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Know – nimalarni bilaman?

Want – nimani bilishni xohlayman?

How - qanday bilib olsam bo‘ladi?

Learn - nimani o'rganib oldim?.

“KWL” metodi	
- <i>Nimalarni bilaman:</i> -	<i>Nimalarni bilishni xohlayman,</i> <i>nimalarni bilishim kerak:</i>
3. Qanday qilib bilib va topib olaman: -	<i>Nimalarni bilib oldim:</i>

“W1H” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta’rifi, mazmuni, nima uchun ishlatiladi)	
Where?	Qayerda (joylashgan, qayerdan olish mumkin)?	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to‘ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• хавфлар



Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o’quv topshirig‘ni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o’quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.



Test

•

Muammoli vaziyat

Tushuncha tahlili (simptom)

Amaliy vazifa

“SCAMPER” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod muammolarni bartaraf etish bo'yicha yangi innovatsion g'oyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan. SCAMPER “tez yugurish” degan ma'noni anglatadi. SCAMPER tushunchasi kengaytmasi (7 ta)ning har biridan 7 qatordan va 3 ustundan iborat jadval yaratish talab etiladi.

SCAMPER



Ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish

SCAMPER savollari	SCAMPER savollari (yangi g'oyani ishlab chiqish)	Ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish
S	Nima bilan almashtirish mumkin?	
C	Nima bilan birlashtirish mumkin?	
A	Nimaga moslashtirish kerak?	
M	Qanday yaxshilash mumkin?	
P	Nimalarni o'zgartirish mumkin? (shakl, tur, belgi, rang va boshqalar)	
E	Yana qanday holda qo'llash mumkin	
R	Nimani qayta tiklash mumkin?	



III. NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MATERIALLARI

III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-MAVZU: OLIY TA’LIM SOHASIGA OID QONUN HUJJATLARINING UMUMIY TAVSIFI

Reja:

1.1.Oliy ta’lim sohasiga oid qonun hujjatlarining umumiy tavsifi. Oliy ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ - huquqiy hujjatlar tushunchasi.

1.2.Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari. Normativ huquqiy hujjatlarga qo‘yiladigan talablar.

1.3.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni.

1.4. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni.

1.5.O‘zbekiston Respublikasining «Pedagogning maqomi to‘g‘risida»gi qonuni.

Ma’ruza natijasida tinglovchi:

- ma’ruza yuzasidan yangi tegishli tushuncha, bilim, ko‘nikma va tajribaga ega bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi;
- ma’ruza bo‘yicha tegishli misollar va masalalar ustida ishlash, o‘z munosabatini bildirish, tegishli moddiy va protsessual qonun normalarini qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi;
- o‘z javobini asoslash, tanqidiy fikrlash, opponentni eshitish ko‘nikma va qobiliyatini shakllantirishga erishiladi;
- Prezintatsiya orali tasavvur, mushohada va qiyosiy tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Mavzu bo‘yicha dars oli b borish metodikasi:

- ✓ Ma’ruzani o‘tish jarayonida texnologik xaritada ko‘rsatilgan axborot-kommunikativ va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanilishi nazarda tutiladi;
- ✓ Ma’ruza mavzusining dolzarbligi, o‘rganilganlik darajasi, bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni haqida tushuncha beriladi;
- ✓ Mavzuga oid milliy va xalqaro normativ hujjatlar bilan tanishtiriladi va tahlil qilinadi;
- ✓ Reja asosida slaydlar yordamida Oliy t’lim jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalarini huquqiy tartibi tushuntiriladi;
- ✓ Qonunchilik hujjatlari o‘rganiladi va tahlil qilinadi;
- ✓ Munozarali (nazariy) savollar o‘rtaga tashlanadi va ularga baho beriladi;
- ✓ Muammoli masalalar tarqatiladi va ularning yechimi eshitiladi;
- ✓ Zaruriyat tug‘ilganda, masala va savollar uyga topshiriq sifatida beriladi;
- ✓ Asosiy tushunchalar, savol-javoblar umumlashtirilib, ma’ruzaga yakun yasaladi.

Tayanch tushunchalar:

➤ **Oliy ta'lim** bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi.

➤ **Oliy ta'limdan keyingi ta'limni oliy ta'lim** va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin.

➤ **Bakalavriat oliy ta'lim** yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

➤ **Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim** olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshidan qabul qilinadi.

➤ **Davlat akkreditatsiyasi** - davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta'lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta'lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablariga hamda o'quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e'tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon.

➤ **Davlat ta'lim muassasasi** - davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa.

➤ **Davlat ta'lim standartlari** - davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui.

➤ **Davlat ta'lim talablari** - ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar.

➤ **Dual ta'lim ta'lim** oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi.

➤ **Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim** ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

➤ **Islohot** (fr. reforme, lot.-reformare, ing.reform, rus, reforma-yangilanish, yaxshilash, o'zgarish, tuzatish, qayta qurishlar, davlatning muhim ishlaridagi o'zgarishlar. Islohat biror sohada turli ravishda o'tkaziladigan o'zgartirishdir (Yuridik ensiklopediya. T., "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2001 y. 202-bet.).

➤ **Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash** kasb bilimlari va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlaydi.

➤ **Kodeks** (lot. "Sodex" - qonunlar to'plami) – ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini tartibga soluvchi, ustuvor huquq normalarini o'zida mujassamlashtirgan va tizimlashtirilgan huquqiy akt - qonun bo'lib, unda huquq tarmog'ining barcha normalari mantiqan mutanosiblashtiriladi (masalan, fuqarolik kodeksi, oila kodeksi, jinoyat kodeksi va b.).

➤ **Konstitutsiya** - (lotin. conctitutio - o'rnatish, tuzilish) – moddiy ma'noda avvalo inson va fuqaro huquqlari va erkinliklarini e'lon qiluvchi va kafolatlovchi, shuningdek ijtimoiy tuzum, boshqaruv shakli va davlat tuzilishi, hokimiyat markaziy

va mahalliy organlarini tashkil etish asoslarini, ularning vakolatlari va o'zaro munosabatlarini, davlat ramzlari va poytaxtini belgilaydigan qonun hujjati, hujjatlar yoki konstitutsiyaviy odatlar majmui.

➤ **Konstitutsiyaviy qonun** – normativ-huquqiy hujjatlar tizimida o'zining yuridik kuchi va ahamiyatiga ko'ra konstitutsiyadan keyin turadigan qonun shakli. Konstitutsiyaviy qonunlar konstitutsiyada ko'rsatilgan masalalar yuzasidan qabul qilinadi.

➤ **Magistratura** aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

➤ **Magistratura tegishli bakalavriat** negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir.

➤ **Maktabgacha ta'lim** va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir

➤ **Malaka** - shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi.

➤ **Modul** tarbiyalash, o'qitishga o'rnatilgan maqsadlar va natijalarga nisbatan muayyan mantiqiy tugallanganlikka ega bo'lgan o'quv fan (kursi) yoki o'quv fanlari (kurslari) qismlarining majmuasi.

➤ **Mutaxassislik** - malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi.

➤ **Nodavlat ta'lim tashkiloti** - davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs.

➤ **Normativ-huquqiy hujjat tushunchasi**-normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir.

➤ **Normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasi** –qonunda belgilangan shaklda qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida qonun hujjatlari normalarni belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat normativ-huquqiy hujjat deb hisoblanadi.

➤ **Professional ta'lim** egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

➤ **Tarbiya** - aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

➤ **Ta'lim** - ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon.

➤ **Ta'lim kampusi** - yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini,

laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti.

➤ **Ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi** - ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari hamda o'quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli.

➤ **Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari** - ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari.

➤ **Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim** umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan.

➤ **Farmoyish** vakolatli davlat organlari yoki mansabdor shaxslar tomonidan kechiktirib bo'lmaydigan va tezda bajarilishi lozim bo'lgan masalalar bo'yicha qabul qilinadigan normativ hujjat.

➤ **Farmon** O'zbekiston Respublikasi davlat boshlig'i tomonidan turmushda, hayotda, xalq xo'jaligida, iqtisodiyotda, ta'limda, ishlab chiqarishda va boshqa sohalarida juda katta o'zgarishlarga olib keladigan o'ta muhim masalalarni tartibga solish va mustahkamlash yuzasidan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qabul qilinadigan normativ hujjat.

➤ **Eksternat tartibidagi ta'lim** olish o'quv dasturlarini mustaqil ravishda o'zlashtirishni o'z ichiga olib, uning yakunlari bo'yicha ta'lim oluvchilardan davlat ta'lim muassasalarida yakuniy va davlat attestatsiyalaridan o'tishni talab etadi.

1.1.NORMATIV HUQUQIY XUJJATLAR TUSHUNCHASI VA TURLARI.

O'zbekiston respublikasining "normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonuni 2020 yil 20 aprelda qabul qilingan bo'lib ushbu qonunning maqsadi normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasini, turlarini, ushbu hujjatlarning o'zaro yuridik kuchi va nisbatini belgilashdan, shuningdek ularni rejalashtirish, tashabbus qilish, tayyorlash, ekspertizadan o'tkazish, kelishish, qabul qilish, e'lon qilish, ularning ijrosini tashkil etishni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Hormativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi qonunchilik ushbu qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Koraqalpog'iston respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarining turlari va o'zaro nisbati, normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash tartibiga hamda ularning mazmuniga qo'yiladigan asosiy talablar va ijrosini tashkil etishni ta'minlash qoraqalpog'iston respublikasi qonunchiligi bilan ham belgilanadi.

O'zbekiston respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish, e'lon qilish, ro'yxatdan o'tkazish va saqlash tartibi o'zbekiston respublikasining «o'zbekiston respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi qonuni bilan belgilanadi.

Hormativ-huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir.

O'zbekiston respublikasi oliy majlisining palatalari, o'zbekiston respublikasining prezidenti, o'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasi, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar yoki mansabdor shaxslardir (bundan buyon matnda normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar deb yuritiladi).

Quqarolar o'zbekiston respublikasining «o'zbekiston respublikasining referendum to'g'risida»gi qonunida belgilangan tartibda o'tkaziladigan referendum yo'li bilan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishi mumkin.

Ushbu qonunning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

konstitutsiyaviylik;

qonuniylik;

jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish hamda ularning ustuvorligi;

oshkoralik;

ilmiylik;

ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning tizimlilik va komplekslilik;

ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning barqarorligi.

Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston respublikasining konstitutsiyasi;

O'zbekiston respublikasining qonunlari;

O'zbekiston respublikasi oliy majlisi palatalarining qarorlari;

O'zbekiston respublikasi prezidentining farmonlari va qarorlari;

O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarorlari;

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Normativ-huquqiy hujjatlar qonunchilik hujjatlari bo'lib, ular o'zbekiston respublikasining qonunchiligini tashkil etadi.

O'zbekiston respublikasining konstitutsiyasi va qonunlari, o'zbekiston respublikasi oliy majlisi palatalarining qarorlari qonun hujjatlaridir.

O'zbekiston respublikasi prezidentining farmonlari va qarorlari, o'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari qonunosti hujjatlaridir.

O'zbekiston respublikasida o'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi va qonunlarining so'zsiz ustuvorligi tan olinadi.

O'zbekiston respublikasining konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega va o'zbekiston respublikasining butun hududida qo'llaniladi.

O'zbekiston respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar o'zbekiston respublikasining asosiy qonuni konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinadi hamda uning normalari va prinsiplariga zid bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston respublikasining qonunlari eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda o'zbekiston respublikasi oliy majlisi tomonidan yoki referendum o'tkazish yo'li bilan qabul qilinadi.

O'zbekiston respublikasining qonunlari konstitutsiyaviy qonunlar tarzida qabul qilinishi mumkin.

O'zbekiston respublikasining konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishini nazarda tutuvchi o'zbekiston respublikasi qonunlari konstitutsiyaviy qonunlar tarzida qabul qilinadi.

O'zbekiston respublikasining qonunlari huquqiy prinsiplar va normalarni mustahkamlovchi, birlashtiruvchi, tizimlashtiruvchi, shuningdek ijtimoiy munosabatlar eng muhim sohasining huquqiy jihatdan kompleks tartibga solinishini ta'minlovchi kodekslar tarzida qabul qilinishi mumkin.

O'zbekiston respublikasi oliy majlisi palatalari o'zbekiston respublikasining konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

O'zbekiston respublikasi prezidenti o'zbekiston respublikasining konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun farmonlar va qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasi o'zbekiston respublikasining konstitutsiyasi va qonunlari, o'zbekiston respublikasi oliy majlisi palatalarining qarorlari, o'zbekiston respublikasi prezidentining farmonlari va qarorlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar, agar ularga qonun hujjatlari, o'zbekiston respublikasi prezidentining farmonlari va qarorlari, o'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarorlari bilan tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish yoki ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish bo'yicha vakolatlar berilgan bo'lsa, normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishi mumkin.

vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar o'z vakolatlari doirasida buyruqlar va qarorlar tarzidagi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

buyruqlar vazirlik va idora nomidan qaror qabul qilish yakka tartibda amalga oshiriladigan vazirlik yoki idoralar rahbarlari tomonidan qabul qilinadi.

qarorlar davlat qo'mitalari va idoralar nomidan qaror qabul qilish kollegial organlari tomonidan amalga oshiriladigan davlat qo'mitalari yoki idoralar tomonidan qabul qilinadi.

vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari yoki idoralar bilan kelishilgan holda qabul qilinishi mumkin.

vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar tomonidan qo'shma qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi mumkin.

vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning tarkibiy bo'linmalari hamda hududiy organlari normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishga haqli emas.

xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari o'z vakolatlari doirasida qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

viloyat, tuman va shahar hokimi o'z vakolatlari doirasida qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari o'zbekiston respublikasining konstitutsiyasi va qonunlari, o'zbekiston respublikasi oliy majlisi

palatalarining qarorlari, o'zbekiston respublikasi prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, o'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati yuqori turuvchi organlarining qarorlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qabul qilinadi.

normativ-huquqiy hujjatlar bilan ushbu hujjatlarning tarkibiy qismi bo'lgan nizomlar, qoidalar, yo'riqnomalar, reglamentlar, strategiyalar, konsepsiyalar, doktrinalar, dasturlar («yo'l xaritalari») va boshqa hujjatlar tasdiqlanishi mumkin.

nizom davlat organlari va tashkilotlarning, ular tarkibiy bo'linmalarining maqomini, asosiy vazifalarini, funksiyalarini, huquq va majburiyatlarini, faoliyatini tashkil etish tartibini, shuningdek u yoki bu sohadagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish tartibini belgilaydi.

qoidalar biror-bir faoliyatni amalga oshirishga doir talablarni belgilaydi.

yo'riqnoma normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llashning aniqlashtiruvchi jihatlarini belgilaydi.

reglament davlat organlari va tashkilotlarning ish tartibini, shuningdek davlat organlari va tashkilotlar tomonidan ma'muriy tartib-taomillarni amalga oshirish tartibini belgilaydi.

strategiya mamlakat yoki muhim tarmoqlarni o'rta va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirishning eng asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

konsepsiya u yoki bu sohadagi davlat siyosatining eng muhim ustuvorliklarini, maqsadlarini, asosiy yo'nalishlarini, vazifalarini va amalga oshirilish mexanizmlarini belgilaydi.

doktrina o'zbekiston respublikasining u yoki bu sohadagi milliy manfaatlarini ta'minlash maqsadlari, vazifalari, prinsiplari va asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

dastur («yo'l xaritasi») u yoki bu sohadagi davlat siyosatining maqsadlariga erishilishini ta'minlaydigan tadbirlar (vazifalar, amalga oshirish muddatlari, moliyalashtirish manbalari va mas'ul ijrochilar bo'yicha o'zaro bog'liq bo'lgan tadbirlar) va mexanizmlar tizimini belgilaydi.

turli normativ-huquqiy hujjatlarning yuridik kuchi bo'yicha o'zaro nisbati o'zbekiston respublikasining konstitutsiyasiga, normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilgan organlarning vakolatlariga va maqomiga, ushbu hujjatlarning turlariga, shuningdek normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan sanaga muvofiq belgilanadi. normativ-huquqiy hujjat o'ziga nisbatan yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lishi kerak. normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida tafovutlar bo'lgan taqdirda yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjat qo'llaniladi. teng yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida tafovutlar bo'lgan taqdirda, keyinroq qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat qoidalari amal qiladi, bundan ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan hol mustasno.

agar normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan vazirlikning, davlat qo'mitasining yoki idoraning ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini huquqiy jihatdan tartibga solish uchun maxsus vakolati bo'lsa, ushbu organ qabul qilgan hujjat bir xil maqomdagi boshqa vazirlik, davlat qo'mitasi yoki idora tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatga nisbatan yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'ladi.

1.2. NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNING E'LON QILINISHI, KUCHGA KIRISHI VA AMAL QILISHI.

Normativ-huquqiy hujjatning rasmiy matnini tasdiqlash:

O'zbekiston Respublikasining qonuniga nisbatan — O'zbekiston Respublikasining Prezidenti;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qaroriga nisbatan — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Spikeri;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qaroriga nisbatan — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Raisi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni va qaroriga nisbatan — O'zbekiston Respublikasining Prezidenti;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga nisbatan — O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri;

vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlariga nisbatan — normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organ rahbari;

mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlariga nisbatan — tegishli hokim tomonidan imzolash orqali amalga oshiriladi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kun ichida ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga taqdim etadi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan normativ-huquqiy hujjatlari tegishli ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas hamda huquqiy oqibatlariga olib kelmaydi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning mansabdor shaxslari davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan normativ-huquqiy hujjatlarni amalga kiritganlik uchun qonunda belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi qonunchilikda belgilanadi.

Normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e'lon qilinishi kerak. Hech kim rasmiy e'lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas.

Normativ-huquqiy hujjatning bayon tarzida rasmiy e'lon qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Normativ-huquqiy hujjat rasmiy e'lon qilinganda uning barcha rekvizitlari ko'rsatiladi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlari matnlarining elektron shakllari ularni qabul qilgan organlarning rasmiy veb-saytlarida normativ-huquqiy hujjat rasmiy e'lon qilinganidan keyin bir kun ichida e'lon qilinishi shart. Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlari matnlarining elektron shakllarini e'lon qilish tartibi qonunchilikda belgilanadi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni norasmiy nashrlarda e'lon qilishga, shuningdek ularni qonunchilikning elektron ma'lumotnoma tizimlari orqali tarqatishga normativ-huquqiy hujjat rasmiy manbalarda ularning barcha rekvizitlari, ular e'lon qilingan rasmiy nashrlar va ularning kuchga kirish sanasi ko'rsatilgan holda e'lon

qilinganidan so'ng yo'l qo'yiladi. Bunda rasmiy nashrlarda e'lon qilingan normativ-huquqiy hujjat matnining aniq takrorlanishi ta'minlanishi kerak.

Normativ-huquqiy hujjatlarning e'lon qilinishi ular qo'llanilishining majburiy shartidir.

«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi», «O'zbekiston Respublikasi qonunchilik to'plami», «Xalq so'zi» va «Narodnoye slovo» gazetalari, «O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi» O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari e'lon qilinadigan rasmiy manbalardir.

«O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarining to'plami», «O'zbekiston Respublikasi qonunchilik to'plami», «Xalq so'zi» va «Narodnoye slovo» gazetalari, «O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari e'lon qilinadigan rasmiy manbalardir.

«O'zbekiston Respublikasi qonunchilik to'plami», «O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi», shuningdek vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning rasmiy nashrlari vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlari e'lon qilinadigan rasmiy manbalardir.

«O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi», shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy nashrlari mazkur mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari e'lon qilinadigan rasmiy manbalardir.

Normativ-huquqiy hujjatlar, agar hujjatlarning o'zida kechroq muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartib-taomili murakkablashtirilishini va tadbirkorlik faoliyati subyektlari zimmasiga yangi majburiyatlar yuklatilishini nazarda tutadigan, shuningdek ularning javobgarligiga oid yangi choralarni belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kamida uch oydan keyin kuchga kiradi.

Normativ-huquqiy hujjatlar orqaga qaytish kuchiga ega emas va ular amalga kiritilganidan keyin yuzaga kelgan ijtimoiy munosabatlarga nisbatan qo'llaniladi, bundan ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

O'zbekiston Respublikasi qonunining amal qilishi u amalga kiritilguniga qadar yuzaga kelgan ijtimoiy munosabatlarga nisbatan qonunda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan hollardagina tatbiq etiladi. Agar qonunda mazkur qonun qabul qilinguniga qadar javobgarlikka sabab bo'lmagan yoki yengilroq javobgarlikka sabab bo'lgan xatti-harakatlarni sodir etganlik uchun yuridik va jismoniy shaxslarning javobgarligini joriy etish yoxud kuchaytirish nazarda tutilsa, shuningdek agar qonunning qo'llanilishi natijasida yuridik va jismoniy shaxslarga moddiy zarar yetkaziladigan bo'lsa, qonunga orqaga qaytish kuchini berishga yo'l qo'yilmaydi.

Normativ-huquqiy hujjatning makon bo'yicha amal qilishi normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organning yurisdiksiyasi bilan belgilanadi.

Normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organ uning makon bo'yicha amal qilish doirasini cheklab qo'yishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjat, agar uning matnida boshqacha izoh berilmagan bo'lsa, muddatsiz amal qiladi.

Normativ-huquqiy hujjatning amal qilish muddati butun hujjat yoki uning bir qismi uchun belgilanishi mumkin. Bunday holda normativ-huquqiy hujjat yoxud uning bir qismi qaysi muddatga yoki qanday hodisa yuz berguniga qadar o'z kuchini saqlab qolishi ko'rsatilishi kerak.

Normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organ belgilangan muddat tugaguniga qadar yoki hodisa yuz berguniga qadar hujjatning yoki uning bir qismining amal qilishini yangi muddatga, boshqa hodisa yuz berguniga qadar uzaytirish to'g'risida yoxud normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka, o'tkazilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlariga, jamiyatdagi barqaror huquqiy munosabatlarga muvofiq bo'lgan taqdirda normativ-huquqiy hujjatga (uning qismiga) muddatsiz tus berish haqida qaror qabul qilishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjatning amal qilishi O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va yuridik shaxslariga, shuningdek o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirganda chet el yuridik shaxslariga, O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, tatbiq etiladi.

Normativ-huquqiy hujjatning yoki uning bir qismining amal qilishi uni qabul qilgan organ yoxud uning yuqori turuvchi organi tomonidan muayyan muddatga yoki muayyan hodisa yuz berguniga qadar to'xtatib turilishi mumkin.

Normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi quyidagi hollarda o'zining amal qilishini tugatadi: normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi qaysi muddat yoki hodisa yuz berishi uchun mo'ljallangan bo'lsa, o'sha muddat tugaganida yoki hodisa yuz berganida; normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi qonunda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq emas yoxud haqiqiy emas deb topilganda; normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi o'z kuchini yo'qotgan deb topilganda; normativ-huquqiy hujjat yoki uning bir qismi bekor qilinganda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti favqulodda holat joriy etilgan hududda amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlarining, vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralar buyruqlari va qarorlarining, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining amal qilishini ushbu hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining favqulodda holat joriy etish to'g'risidagi farmoniga zid bo'lgan taqdirda, favqulodda holatning amal qilish muddatida to'xtatib turishga haqli.

Ilgari qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga yangi normativ-huquqiy hujjat qabul qilinganligi munosabati bilan zarur o'zgartishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritiladi hamda ilgari qabul qilingan barcha normativ-huquqiy hujjatlar yoki ularning qismlari, agar ular yangi huquqiy normalarga zid bo'lsa yoxud yangi normativ-huquqiy hujjat bilan to'raligicha qamrab olingan yoki amalda o'z huquqiy ahamiyatini yo'qotgan bo'lsa, lekin rasman o'z kuchini yo'qotgan deb topilmagan bo'lsa, o'z kuchini yo'qotgan deb topilishi lozim.

Teng yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilayotgan o'zgartishlar va (yoki) qo'shimchalar, o'z kuchini yo'qotgan deb topilayotgan teng yuridik kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarning yoki ular qismlarining ro'yxati normativ-huquqiy hujjatning o'zida ko'rsatilishi kerak.

Normativ-huquqiy hujjat qabul qilinganligi munosabati bilan o'zgartishlar, qo'shimchalar kiritilishi yoki o'z kuchini yo'qotgan deb topilishi lozim bo'lgan, teng yuridik kuchga ega normativ-huquqiy hujjatlarning yoki ular qismlarining soni ancha ko'p bo'lgan taqdirda, mazkur o'zgartish va qo'shimchalar, shuningdek o'z kuchini yo'qotgan deb topilishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar ro'yxati alohida hujjat sifatida rasmiylashtiriladi. Bunday hujjat loyihasi ishlab chiquvchi tomonidan tayyorlanadi va normativ-huquqiy hujjat loyihasi bilan bir vaqtda taqdim etiladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy sharhlash normativ-huquqiy hujjatda noaniqliklar topilgan, u amaliyotda noto'g'ri yoki ziddiyatli tarzda qo'llanilgan taqdirda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga rasmiy sharhni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi beradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga rasmiy sharhni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tegishli palatalari beradi.

Qonunosti hujjatlari normalariga rasmiy sharhni ularni qabul qilgan organlar beradi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy sharhlash jarayonida ularga normalarni aniqlashtirishga qaratilgan tuzatishlar, o'zgartishlar, qo'shimchalar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

1.3.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI NORMATIV HUQUQIY XUJJAT SIFATIDA.

Har bir suveren davlatning bosh huquqiy asosi bu uning Konstitutsiyasidir. Konstitutsiyamizning yaratilishi o'ziga xos rivojlanish yo'lini bosib o'tganligi bilan tavsiflanadi. O'tish davridagi murakkab zamonda yaratilgan ushbu bebaxo va benazir xujjat asosiy qonun shaklida jamiyatning, xalqning manfaati xamda kelajagiga umid va ishonch uyg'otdi, ijtimoiy taraqqiyotga mo'ljal oluvchi yo'lchi yulduz bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Ma'lumki O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qizg'in muxokamalar natijasida suveren demokratik davlatning Konstitutsiyasi sifatida 2023 yil 30 aprelda yangi taxrirda qabul qilindi. Konstitutsiyamiz muqaddima, 6 bo'lim, 27-bob va 155 ta moddadan iborat.

Aynan, Konstitutsiyaning muqaddima qismida davlatchilikni takomillashtirishning yangi bosqichida O'zbekistonni konstitutsiyaviy rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari belgilandi:

inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqlik,

demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatni namoyon qilish;

inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etishga qaratilganlik;

O'zbekiston jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo'shni davlatlar bilan hamkorlik, o'zaro qo'llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosidagi do'stona munosabatlarni mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilish;

Konstitutsiyada "O'zbekiston – respublika boshqaruv shaklidagi suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deb belgilandi.

Konstitutsiyaga quyidagi o'zgarishlar kiritildi:

Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi

Shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlashini

Inson va fuqaroning asosiy shaxsiy huquq va erkinliklarini ta'minlash

Hokimiyat bo'linishi tamoyili

Davlat hokimiyatning markaziy va hududiy vakillik organlari

Parlament tekshiruv instituti

Hukumatning va mahalliy ijro etuvchi xokimiyati organlarining konstitutsiyaviy vakolatlari

Davlat hokimiyati organlari mansabdor shaxslarining almashinuvi

Advokatlar faoliyati mustaqilligining konstitutsiyaviy kafolatlari

Konstitutsiyaviy islohotlarning ustuvor yo'nalishi

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash

Ishsizlikka qarshi kurashish

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish huquqi

Fuqarolarning ekologik huquqlarini himoya qilish

Bozor munosabatlarini rivojlantirish konstitutsiyaviy mexanizmlari

Yoshlar, bolalar, ayollar va oilaga g'amxo'rlik qilish

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini quyidagilarda:

birinchidan, ushbu xujjatda huquqiy va siyosiy ongning eng yuksak yutuqlarini, xozirgi zamon, konstitutsiyaviylik ilmini o'ziga jalb etgani, o'zbek xalqi madaniyati va milliy an'analarining chuqur ildizlariga suyanilganligi;

ikkinchidan, bu xujjat, O'zbekiston Respublikasidagi avvalgi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tizimni amalda boshqa tizimga aylanganligini, tubdan o'zgarish ro'y berganini Konstitutsiyaviy mustahkamlaganligini ko'rish mumkin.

Bir so'z bilan aytganda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mazmunan yangi siyosiy xujjatdir. Unda ijtimoiy-siyosiy xususiyat, uni rivojlantirishning asosiy g'oyalari, respublika ichki va tashqi siyosatining eng muhim yo'nalishlari belgilab berildi. Asosiy qonun dunyo siyosiy xaritasida yangi suveren davlat - O'zbekiston Respublikasi paydo bo'lganligini mustahkamlab qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qoidalarini xamisha ustivor, birlamchi kuchga egadir. Boshqa qonunlarning barchasi u yoki bu tarzda konstitutsiyaviy meyorlar asosida yaratiladi, uni rivojlantiradi va ro'yobga chiqaradi. Uning asosida normativ huquqiy-xujjatlar ishlab chiqiladi. Mamlakatimiz Konstitutsiyasi kuchli axloqiy zaminga egadir. Unda avvalo insonparvarlik, adolat g'oyalari mustahkamlab qo'yilgan. Konstitutsiyaning "insonga qaratilganligi" xususiyatini alohida ajratib ko'rsatish lozim. Konstitutsiyaning markazida inson, fuqaro, uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini turadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi o'z maqomi, tuzilishi, yo'nalishi xamda asosiy tamoyillari, yaxlit mundarijasiga, ya'ni Muqaddimasidan boshlab so'nggi moddasiga qadar mustaqillik va istiqlool ruxi, demokratik tamaddun mazmuni bilan ajralib turadi.

Mustaqil davlatimizning Konstitutsiyasi kelajagi buyuk davlatning ishonchli huquqiy kafolatlarini mustahkamlaydi. U bizga inson huquqlari, demokratiya, erkinlik, barqarorlik va taraqqiyot tamoyillari yig'indisini ifodalaydigan huquqiy va adolatli davlat qurish yo'llarini aniq ifoda etgan va xalq manfaatlarini himoya qiluvchi eng oliy qonun sifatida doimiy yo'lchi yulduz bo'lib xalqimiz borayotgan yo'lni yoritib boradi.

Asosiy Qomusimizning oldingi qonunlardan va boshqa davlatlarning Konstitutsiyalaridan ajralib turadigan o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, 2023 yilgi Konstitutsiyamiz o'zining tub mohiyati va falsafasi, maqsadlari va g'oyalari ko'ra yangi hujjatdir.

Ikkinchidan, Konstitutsiyamiz o'zining ichki tuzilishi va yangi konstitutsiyaviy institutlari bilan ajralib turadi.

Uchinchidan, Asosiy Qonun boshqa konstitutsiyalardan farqli o'laroq, o'ta mafkuralashtirish va siyosatlashtirish ruhi bilan sug'orilmagan.

To'rtinchidan, Konstitutsiyamiz jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan xalqaro huquq talab va qoidalariga javob beradigan tarzda tayyorlangan.

Beshinchidan, Konstitutsiyamiz jahon konstitutsiyaviy tajribasiga keng tayanishi va ijobiy tomonlardan atroflicha foydalanganligi bilan ham ajralib turadi. Konstitutsiyamiz eng taraqqiy etgan mamlakatlar, xususan, AQSH, Turkiya, Fransiya, Germaniya Shvetsiya, Italiya kabi Farb davlatlari, ruhiyati va etnik jihatlardan bizga yaqin bo'lgan Yaponiya, Misr, Hindiston va boshqa Sharq davlatlarining boy tajribasi va xalqaro xujjatlarning talablarini o'zida jamlagan.

Oltinchidan, Konstitutsiyamizni mustaqil davlatimiz ravnaqining huquqiy kafolati darajasiga ko'taruvchi eng muhim belgi unda jahonning ilg'or konstitutsiyaviy tajribasini milliy-ma'naviy va huquq qadriyatlarimizga, o'zbek xalqining boy tarixiga uyg'unlashtirilib qo'llanilganidadir.

Konstitutsiyaning yuridik xususiyatiga quyidagilar kiradi:

1. Konstitutsiya bu Oliy Majlis tomonidan qabul qilinadigan va hamma uchun umummajburiy kuchga ega bo'lgan normativ-huquqiy akt bo'lib, jamiyat qurilishi xalq hokimiyatchiligi bilan bog'liq bo'lgan hamma ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

2. Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega, ya'ni barcha oddiy qonunlar va boshqa normativ-huquqiy aktlarga nisbatan ustunlikka ega, chunki qonunlar va boshqa normativ-huquqiy aktlar Konstitutsiya normalariga muvofiq bo'lishi shart.

3. Konstitutsiya joriy qonunchilik uchun asos bo'lib hisoblanadi va ularning xarakterini belgilab beradi va ayni vaqtda uning normalarini takomillashtiruvchi normativ aktlar qabul qilish zarurligini nazarda tutadi.

4. Konstitutsiya yana uni qabul qilish va o'zgartirishning alohida tartiblarini belgilaydi.

Ta'lim olish huquqi shaxsning asosiy huquqlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasiga (1948 yil) asoslanib berilgan huquqni amalga oshirishning faoliyat ko'rsatayotgan mexanizmini yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida "Har kim ta'lim olish huquqiga ega.

Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi

Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir.

Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi deb ko'rsatilgan.

Davlat faqat ta'lim olish huquqini amalga oshirish uchun sharoitlar yaratibgina qolmay, mamlakatdagi maktab ishlarini nazorat ham qilib turadi.

O'zbekiston Respublikasi o'zi olgan majburiyatlarga amal qilib uzluksiz ta'limning barqaror tizimini yaratdi, shaxsning ta'lim olish huquqini amalga oshirish mexanizmini mustaxkamlab qo'ydi.

Ta'lim olish huquqining mazmuni shundan iboratki, u O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi uchun ta'lim va tarbiyaning barcha shakllaridan teng foydalanish imkoniyatini beradi.

Shuningdek, Konstitutsiyada fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli ekanligi;

oliy ta'lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega ekanligi.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning

ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etilishi;

Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi belgilab qo'yilgan.

Xozirgi vaqtda O'zbekistonda har bir kishining ehtiyojiga ko'ra ta'lim olish huquqini ta'minlashning ishchan mexanizmi shakllangan bo'lib, u tegishli moddiy-texnik shart-sharoitlar bilan mustahkamlangan.

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini muxofaza qilishga bag'ishlangan barcha qonunlar va huquqiy xujjatlar negizida Konstitutsiyada nazarda tutilgan demokratik rux bilan sug'orilgan asosiy g'oya va qoidalar yotadi. Konstitutsiya asosida ishlab chiqilgan va qabul qilingan barcha qonunlar Konstitutsiyaviy tamoyillarni ijtimoiy hayotning turli sohalarida joriy etilishi uchun muhim vosita vazifasini bajaradi.

1.4. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "TA'LIM TO'G'RISIDA"GI QONUNI.

Bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020 yil 23 sentabr kuni qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Mazkur qonun bilan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar belgilangan bo'lib, ular asosan ta'lim ustuvorligining tan olinishi; ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi; ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi; ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi; ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilganligi; ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati; ta'limning uzluksizligi va izchilligi; o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi; davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi; o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi; insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi hisoblanadi.

Shuningdek, qonunda ta'limning maktabgacha ta'lim va tarbiya; umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim; professional ta'lim; oliy ta'lim; oliy ta'limdan keyingi ta'lim; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish va maktabdan tashqari ta'lim kabi turlari bayon etilgan.

Yuqorida qayd qilingan ta'lim turlaridan biri kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishdir. Mazkur qonun bilan kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishini tartibga soluvchi bir qator qoidalar belgilangan.

Jumladan, kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi. Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta'lim talablari bilan belgilanadi.

Mazkur qonun jahon standartlari talablaridan kelib chiqqan holda ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning qamrovi kengligi va o'ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan oldingi ya'ni, 1997 yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonundan tubdan farq qiladi.

Ushbu qonunning o'ziga xos xususiyatlari ta'lim sohasiga bir qator yangiliklar kiritilganligida namoyon bo'ladi. Jumladan, unda belgilangan masofaviy ta'lim haqidagi qoidalar o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.

Shuningdek, qonunda dual ta'limga oid qoidalar belgilanib, u ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi.

Shu bilan birgalikda, katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish haqida qoidalarda katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish bu butun umr davomida o'qitishning markaziy tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim berish hamda o'qitishning jamiyat hayotida va mehnat faoliyatida katta yoshdagilarning ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan barcha shakllarini o'z ichiga olishi, shuningdek rasmiy, norasmiy va informal o'qitish jarayonlarining butun majmuini qamrab olishi bayon etilgan.

Bundan tashqari, qonunga inklyuziv ta'lim to'g'risidagi qoidalar kiritilib, unga binoan, inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etadi.

Bundan tashqari qonunda ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirish:

Davlat ta'lim muassasalari ustavida belgilangan vazifalarga muvofiq pulli ta'lim xizmatlari va boshqa xizmatlar ko'rsatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga egaligi;

Pulli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish davlat ta'lim muassasalarining asosiy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi;

Davlat ta'lim muassasalarida qo'shimcha ta'lim xizmatlari ko'rsatganlik uchun haq undirish tartibi ular tomonidan mustaqil ravishda belgilanishi;

Davlat ta'lim muassasalari pulli ta'lim xizmatlari va boshqa xizmatlar ko'rsatish hamda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish hisobidan olingan pul mablag'larini mustaqil ravishda tasarruf etishga haqli ekanligi;

Ta'lim tashkilotlarining xalqaro hamkorligi;

Ta'lim to'g'risidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik masalalariga e'tibor qaratilgan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING «PEDAGOGNING MAQOMI TO'G'RISIDA»GI QONUNI.

O'zbekiston Respublikasining «Pedagogning maqomi to'g'risida»gi qonuni 2024 yil 1 fevralda qabul qilingan bo'lib u o'z ichiga 21 moddani qamrab olgan. Pedagogning maqomi to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining pedagogning maqomi to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Qonun bilan pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari, faoliyatining asosiy kafolatlari, mehnatiga yarasha haq to'lash, rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish tamoyillari belgilandi.

Hujjatda pedagogning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'lishi qat'iy belgilab qo'yildi.

Mazkur qonunga ko'ra, pedagogni kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga, shu jumladan, hududlarni obodonlashtirishga va qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilish taqiqlanadi. Shuningdek, pedagogdan uning kasbiy majburiyatlariga taalluqli bo'lmagan hisobotlarni va boshqa ma'lumotlarni, jumladan, bitiruvchilarning bandligi ta'minlangani haqidagi hisobotlarni shakllantirishini va taqdim etishini talab qilish man etiladi.

Bundan tashqari, pedagogning zimmasiga tovar va xizmatlarni sotib olish majburiyatini yuklash, xususan, ish haqidan uning yozma rozilgisiz tovar va xizmatlar uchun mablag' ushlab qolish mumkin emas.

Pedagogning huquqlari:

Pedagog o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:
zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, o'qitish va tarbiya vositalarini hamda usullarini erkin tanlash va ulardan foydalanish;

belgilangan tartibda mualliflik dasturlarini va o'qitish uslubiyotini ishlab chiqish va joriy etish, ijodiy faollik ko'rsatish, shuningdek tegishli o'quv fanlari, kurslari va modullaridan foydalanish;

kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish;

o'quv, ilmiy va uslubiy yo'nalishlardagi davlat axborot-resurs hamda axborot-kutubxona markazlarining xizmatlaridan bepul foydalanish;

davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, malaka talablarini, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish jarayonida ishtirok etish;

ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatni amalga oshirish, tajriba-sinov faoliyatida ishtirok etish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq ijodiy ta'til olish;

ta'lim tashkilotini boshqarishda, shuningdek ta'lim tashkilotining faoliyati bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

o'z kasbiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish uchun pedagoglarning jamoat birlashmalariga birlashish va ularda ishtirok etish;

o'z kasbiy faoliyatiga g'ayriqonuniy ravishda aralashuvdan himoyalani;

pedagogik faoliyati davomida o'ziga biriktirilgan sinfdagi (guruhdagi, kursdagi) ta'lim oluvchilarning bilimini mustaqil baholash;

ta'lim oluvchilar va ularning ota-onalari (qonuniy vakillari) tomonidan pedagogning kasbiga hurmat bilan munosabatda bo'lishni talab qilish;

davlat sog'liqni saqlash muassasalarida majburiy tibbiy ko'rikdan bepul o'tish (davlat ta'lim tashkilotlari uchun);

ta'lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish.

Pedagog qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Pedagog o'zining kasbiy faoliyatini amalga oshirish davomida o'z sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini himoya qilish uchun sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilgan, shuningdek o'z huquqlarini buzayotgan davlat organlarining g'ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilgan taqdirda davlat bojini to'lashdan ozod qilinadi.

Ta'lim tashkiloti tomonidan pedagogning kasbiy faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish yoki uning xizmat majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilish bilan bog'liq huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda, pedagog ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzilmagan holda, o'z arizasida huquqbuzarning shaxsi, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joy, vaqt va uning mohiyati to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek ishni hal etish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni ko'rsatib, sudga bevosita murojaat qilishga haqli.

Pedagogning majburiyatlari:

Pedagog o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda:

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;

o'quv mashg'ulotlarini o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlariga muvofiq sifatli o'tkazishi;

o'quv mashg'ulotlari davomida ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko'rishi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi;

ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi va ularni kamsitmasligi;

voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi;

o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi;

ta'lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta'sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga va pedagogik etika qoidalariga rioya etishi;

majburiy tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart.

Pedagogning zimmasiga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishni cheklash:

Qonunga ko'ra, quyidagi shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi:

qonuniy kuchga kirgan sud hukmiga muvofiq pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etilgan shaxslar;

qonunchilikda belgilangan tartibda sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;

pedagogik faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kasalliklari bo'lgan shaxslar;

psixiatriya yoki narkologiya muassasalarida hisobda turgan shaxslar.

Qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ilgari sudlangan shaxslarni pedagogik faoliyat bilan bog'liq lavozimlarga qabul qilish man etiladi.

Boshqa o'zgarishlar

Qonun bilan, umumiy o'rta ta'lim tashkilotida ilk bor kasbiy faoliyatini boshlayotgan shaxsga bir o'quv yili davriga murabbiylikni amalga oshirish uchun tajribali pedagog biriktiriladi.

Shuningdek, pedagoglar sudga shikoyat qilganda davlat boji to'lamaydi.

Shu tariqa, «Davlat boji to'g'risida»gi qonunga quyidagi qo'shimchalar kiritildi:

Pedagog xodimlar — kasbiy faoliyatini amalga oshirish davomida o‘z sha’ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro‘cini himoya qilish bilan bog‘liq ishlar yuzasidan Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarda davlat bojini to‘lashdan ozod qilinadi.

Ular kasbiy faoliyatini amalga oshirish davomida pedagog xodimlarning huquqlarini buzayotgan davlat organlarining g‘ayriqonuniy qarorlari, mansabdor shaxslarning harakatlari (harakatsizligi) ustidan Ma‘muriy sudlarga shikoyat qilganda davlat bojini to‘lashdan ozod qilinadi.

MUSTAQIL TAYYORLANISH UCHUN MASALALAR:

1-masala

Oliy ta‘lim jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalari o‘z faoliyat sohangizdan kelib chiqqan holda tizimli tahlil qiling?

O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuniyem tahlil qiling (yangi va eski tahriri)?

№	Asosiy yutuqlar nimalardan iborat?	Mavjud muammolar?	Muammolarni bartaraf etish mexanizmi?
1.			
2.			

2-masala

O‘zbekiston Respublikasi “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonunida pedagogning majburiyatlarini tahlil qiling?

№	Pedagoglarning majburiyatlari	Majburiyatlarni bajarishdagi mavjud muammolar?	Muammolarni bartaraf etish mexanizmi?
1.			
2.			

Nazorat savollari:

1. Ta‘lim sohasidagi asosiy prinsiplar nimalardan iborat ?
2. Konstitutsiyada O‘zbekistonni ijtimoiy davlat, deb belgilashning ahamiyati nimada?
3. Konstitutsiyamizda alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarning ta‘lim olishga bo‘lgan huquqini ta‘minlashga doir norma belgilanishining ahamiyati nimada?
4. Oliy ta‘lim tashkilotlariga qonunga muvofiq berilayotgan akademik erkinlik hamda o‘zini o‘zi boshqarish huquqlarining mazmun-mohiyati nimadan iborat?
5. Fuqarolarning ta‘lim olish huquqini kafolatlashga qaratilgan yangi normalarning mohiyati nimadan iborat?

6. Ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir, uning mohiyati nimada?
7. Davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarining rivojlantirilishini ta'minlashga oid normani kiritish zaruriyati nimadan iborat?
8. Oliy ta'lim pedagog kadrlarining kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan malaka talablari nimalardan iborat?
9. Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlashning mohiyati nimada?
10. Oliy ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlarining mohiyati nimada?
11. Inklyuziv ta'limning mohiyati?
12. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va uning mohiyati?
13. Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari va uning mohiyati nimada?
14. Javobgarlik va jazo tizmi nimalardan iborat?

2- MAVZU: OLIY TA'LIM SOHASIGA OID QONUNOSTI HUJJATLARI VA ULARNING MAZMUNI

Reja:

2.1.O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uning mohiyati.

2.2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim tizimiga oid farmonlari va qarorlari. Oliy ta'lim sohasiga oid qonunosti hujjatlari va ularning turlari.

2.3.Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari. Davlat ta'lim standartlari, ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablar. O'quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish usullari. OTMlarning lokal hujjatlari (Ustav, Ichki tartib qoidalar).

2.3.Meyoriy uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish amaliyotini takomillashtirish mexanizmlari. Xorijiy tajribalar asosida Malaka talablari, o'quv rejalar va fan dasturlarini takomillashtirish.

Ma'ruza natijasida tinglovchi:

- ma'ruza yuzasidan yangi tegishli tushuncha, bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi;
- ma'ruza bo'yicha tegishli misollar va masalalar ustida ishlash, o'z munosabatini bildirish, tegishli moddiy va protsessual qonun normalarini qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'ladi;
- o'z javobini asoslash, tanqidiy fikrlash, opponentni eshitish ko'nikma va qobiliyatini shakllantirishga erishiladi;
- Prezintatsiya orali tasavvur, mushohada va qiyosiy tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mavzu bo'yicha dars olib borish metodikasi:

- ✓ Ma'ruzani o'tish jarayonida texnologik xaritada ko'rsatilgan axborot-kommunikativ va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanilishi nazarda tutiladi;
- ✓ Ma'ruza mavzusining dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni haqida tushuncha beriladi;
- ✓ Mavzuga oid milliy va xalqaro normativ hujjatlar bilan tanishtiriladi va tahlil qilinadi;
- ✓ Reja asosida slaydlar yordamida qonunosti normalarini huquqiy tartibi tushuntiriladi;
- ✓ Qonunosti hujjatlari o'rganiladi va tahlil qilinadi;
- ✓ Munozarali (nazariy) savollar o'rta tashlanadi va ularga baho beriladi;
- ✓ Muammoli masalalar tarqatiladi va ularning yechimi eshutiladi;
- ✓ Zaruriyat tug'ilganda, masala va savollar uyga topshiriq sifatida beriladi;

✓ Asosiy tushunchalar, savol-javoblar umumlashtirilib, ma'ruzaga yakun yasaladi.

Tayanch tushunchalar:

➤ **Malaka** - shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi.

➤ **Malaka amaliyoti** — o'quv jarayonining nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikma hosil qilish, o'quv rejalari va o'quv dasturlarning ma'lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo'yicha materiallar to'plash uchun o'tkaziladigan bir qismi.

➤ **Malaka talablari** — oliy ta'lim tegishli bosqichi bitiruvchisining bilim, ko'nikma va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar;

➤ **Modul** - tarbiyalash, o'qitishga o'rnatilgan maqsadlar va natijalarga nisbatan muayyan mantiqiy tugallanganlikka ega bo'lgan o'quv fan (kursi) yoki o'quv fanlari (kurslari) qismlarining majmuasi.

➤ **Mutaxassislik** - malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi.

➤ **Oliy ma'lumot haqida davlat hujjati (diplom)** — akkreditatsiyadan o'tgan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga beriladigan va ularning oliy ta'limning o'quv rejalari va o'quv dasturlarini bajarganliklarini tasdiqlovchi davlat namunasidagi hujjat. Hujjat uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki olingan akademik darajaga muvofiq ishlash huquqini beradi.

➤ **Oliy ta'lim muassasasi akkreditatsiyasi** — oliy ta'lim muassasasi faoliyati darajasini davlat ta'lim standartlarining mezon va talablariga javob berishi hamda bitiruvchilar oliy ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni berish huquqining davlat tomonidan e'tirof etilishi.

➤ **Oliy ta'lim muassasasi attestatsiyasi** — davlat ta'lim standartlariga muvofiq oliy ta'lim muassasasi faoliyatini baholash va kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli.

➤ **Oliy ta'limning bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari klassifikatori** O'zbekiston Respublikasining axborotlarni kodlash va tasniflash yagona tizimining (KTYAT) tarkibiy qismidir. Mazkur davlat standarti O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 yanvardagi 5-son "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida"gi qarorlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

➤ **Tajriba orttirish (ishlab chiqarishda, ilmiy-tadqiqot muassasasida, xorijda tajriba orttirish)** — magistratura mutaxassisligi bo'yicha maqsadli kasbiy ta'lim o'quv reja va o'quv dasturlarini o'zlashtirish, magistratura talabalarida ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirish yo'li orqali magistratlarni eng yangi ilmiy-texnik rivojlanishdagi yutuqlar hamda iqtisod, fan, mudofaa, texnika,

madaniyat va sogʻliqni saqlash va boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bazasida ilmiy tadqiqot olib borishi.

➤ **Taʼlim sifatini nazorat qilish** - oʻqitish mazmuni va natijalarining davlat taʼlim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish.

➤ **Taʼlim sifatini nazorat qilish** — oʻqitish mazmuni va natijalarining davlat taʼlim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish.

➤ **Taʼlim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari** - taʼlim oluvchilar, voyaga yetmagan taʼlim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari.

➤ **Oʻqitish sifatini nazorat qilish** - talabaning bilim saviyasini tekshirish va uning oʻquv dasturini oʻzlashtirish darajasini aniqlash.

➤ **Oʻqitishning meyoriy muddati** - taʼlim oluvchilar tomonidan oʻquv rejalari va fanlar dasturi oʻzlashtirilishi uchun belgilangan muddat.

➤ **Oʻquv dasturi** — taʼlim mazmunini belgilovchi oʻquv fanining asosiy mavzulari, mazmuni, oʻzlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari koʻrsatilgan hujjat.

➤ **Oʻquv yili** — oliy taʼlim muassasasida bir taʼlim kursini yakunlashga moʻljallangan oʻquv faoliyati davri. Oʻquv yili ikki kalendar yil bilan belgilanadi, masalan, 2021/2022 oʻquv yili.

➤ **Oʻquv reja** — oliy taʼlimning muayyan bakalavriat taʼlim yoʻnalishi yoki magistratura mutaxassisligi boʻyicha oʻquv faoliyati turlari, oʻquv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni oʻrganishning izchilligi, soatlar va kreditlardagi hajmini taʼlim davrining toʻliq muddati uchun belgilaydigan hujjat.

➤ **Oʻquv semestri** — oliy taʼlim muassasasida oʻquv yilining yarmini tashkil etuvchi oʻzaro bogʻlangan fanlarning maʼlum majmuini oʻzlashtirishga moʻljallangan va ular boʻyicha yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi. Ayrim hollarda oʻquv semestri oʻquv yilining uchdan bir qismini tashkil etishi mumkin.

➤ **Oʻquv fani** — taʼlim jarayonida muayyan taʼlim yoʻnalishi va mutaxassisliklar boʻyicha oʻzlashtirilishi zarur boʻlgan tegishli ilmiy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy sohalaridan saralab olingan bilim va koʻnikmalar tizimi.

➤ **Oʻquv fanlari bloki** - oʻquv rejalari va fanlar dasturlarining kadrlar tayyorlash jarayonida aniq maqsad va vazifalarga erishish uchun muayyan bilim sohasi yoki faoliyatning oʻzlashtirilishini taʼminlaydigan oʻquv fanlarini birlashtiruvchi tarkibiy qismi.

➤ **Oʻquv yuklama** — oʻquv dasturlarni oʻzlashtirish uchun zarur boʻlgan akademik soatlar hajmi.

➤ **Farmoyish** vakolatli davlat organlari yoki mansabdor shaxslar tomonidan kechiktirib boʻlmaydigan va tezda bajarilishi lozim boʻlgan masalalar boʻyicha qabul qilinadigan normativ hujjat.

➤ **Farmon** Oʻzbekiston Respublikasi davlat boshligʻi tomonidan turmushda, hayotda, xalq xoʻjaligida, iqtisodiyotda, taʼlimda, ishlab chiqarishda va boshqa sohalarida juda katta oʻzgarishlarga olib keladigan oʻta muhim masalalarni tartibga solish va mustahkamlash yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qabul qilinadigan normativ hujjat.

➤ **Eksternat tartibidagi ta'lim** olish o'quv dasturlarini mustaqil ravishda o'zlashtirishni o'z ichiga olib, uning yakunlari bo'yicha ta'lim oluvchilardan davlat ta'lim muassasalarida yakuniy va davlat attestatsiyalaridan o'tishni talab etadi.

➤ **Yuridik kuchi bo'yicha** oliy yuridik kuchga ega bo'lgan qonun hujjatlari hamda – qonunlarga asoslangan va ularga zid kelmaydigan hujjatlar – qonunosti hujjatlari alohida ajratib ko'rsatiladi. Qonunlardan tashqari, mutlaq barcha normativ hujjatlar qonunosti hujjatlari hisoblanadi.

➤ **Yakuniy davlat attestatsiyasi** - bakalavr yoki magistr darajasiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq holda, ma'lum talab va tartibotlar vositasida bitiruvchi tomonidan oliy ta'lim o'quv reja va dasturlarining bajarilishi sifatini baholash.

➤ **Yakuniy davlat attestatsiyasi** — bakalavr yoki magistr akademik darajasiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq holda, ma'lum talab va tartib asosida (fanlar bo'yicha davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi) bitiruvchi tomonidan oliy ta'lim o'quv reja va o'quv dasturlarining o'zlashtirish darajasi hamda sifatini baholash jarayoni.

Oliy ta'lim sohasiga oid qonunosti normativ huquqiy hujjatlar haqida so'z ketganda, qonun osti normativ huquqiy hujjatlar o'zi nima ekanligini ta'kidlash lozim. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunda rasman mustahkamlab qo'yilganidek, O'zbekiston Respublikasida barcha qonunchilik hujjatlari ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi:

2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari.

Bugun o'tgan davr mobaynida amalga oshirgan ishlarimizni xolisona baholar ekanmiz, ta'lim-tarbiya sohasida hali qiladigan ko'pgina vazifalarimiz borligini, o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolarni hal qilish, eng muhimi, bu borada boshlagan islohotlarni mantiqiy yakuniga yetkazish, ularning yarim yo'lda qolib ketishiga, o'zibo'larchilikka yo'l qo'ymaslik zarur.

Avvalambor, barcha ta'lim tashkilotlarini davr talablariga mos holda rivojlantirish, zamonaviy jihoz va uskunalar, o'quv laboratoriyalari bilan ta'minlashni davom ettirish, yangi avlod ta'lim standartlari, dastur va qo'llanmalarni joriy etish masalasini eng muhim vazifamiz sifatida ko'rishimiz lozim.

Mamlakatimizda shakllangan uzluksiz ta'lim tizimining yuqori bosqichi bo'lmish oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, yuqori malakali mutaxassis va kadrlar tayyorlash sifatini oshirish maqsadida ularning faoliyatini takomillashtirish ehtiyojini hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Ta'lim tashkilotlarini faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar tizimida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlar bilan bir qatorda, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari alohida ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM TIZIMINI 2030 YILGACHA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI.

Oliy ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida yuz bergan o‘zgarishlar ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ma’naviy jihatdan katta tarixiy ahamiyatga ega. Amalga oshirilgan islohotlar nafaqat mamlakatimizda katta ijobiy o‘zgarishlarga olib keldi, balki xalqaro maydonda ham mamlakatimiz ob‘ro‘-e’tiborini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu borada bir qator normativ - huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Muxtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’limdagi kamchiliklarni tanqidiy tahlil qilib, uni bartaraf etish yo‘llarini, Ta’lim tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish, ma’naviy-ma’rifiy muhitni zamon talabiga moslash, o‘qituvchi kasbining, nufuzini oshirish, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’limga joriy etishga katta e’tibor qaratish masalalariga jiddiy yondashish va shu bilan birga, professor-o‘qituvchilar oyligini oshirish va rag‘batlantirib borish zarurligini ko‘rsatib berdi va bu masalalarda bugungi kunda katta ishlar amalga oshirildi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi 5847-sonli farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” qabul qilindi.

Ushbu konsepsiyada intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Konsepsiyaning mazmuni mamlakatimiz oliy ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi. Unda:

oliy ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish;

O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarining flagmaniga aylantirish;

respublikadagi kamida 10 ta oliy ta’lim muassasasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga, shu jumladan O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish;

oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish;

xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;

oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish;

oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta'minlash;

oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish;

xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish;

oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko'rsatkichlari oshishi, shuningdek respublika ilmiy jurnallarini xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishini ta'minlash;

O'zbekiston oliy ta'lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi «Xab»ga aylantirish;

oliy ta'limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta'lim va ilmfan texnologiyalarini jalb etish;

talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish;

oliy ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini, shu jumladan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag'larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilash, ularni bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash;

ta'limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish;

aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, ular uchun infratuzilmaga oid sharoitlarni yaxshilash;

ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan.

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish;

oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;

sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash.

Uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo'nalishlar asosida amalga oshiriladi:

oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish;

ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;

oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;

ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish.

yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish;

oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash;

oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;

korruptsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish;

oliy ta'lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash.

Oliy ta'lim islohotlarining mahsuli sifatida mamlakatimizda oliy ma'lumot olmoqchi bo'lgan har qanday fuqaro uchun imkoniyatlar eshigi ochildi. Aniqroq aytganda, yoshidan qat'i nazar, oliy ma'lumotni kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta'lim shaklida olishga sharoit yaratildi. YA'ni mamlakatimizning har bir fuqarosi yoshi, millati va elatidan qat'i nazar, o'zining Konstitutsion huquqlaridan to'liq foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bundan tashqari, mehnat staji, ish tajribasiga ega bo'lgan fuqarolar o'zlari ishlayotgan korxonaning yuqori tashkilotlari tavsiyasi bilan imtihonsiz, suhbat asosida oliy ta'lim tashkilotlariga kirish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Jumladan, kamida 5 yil ish stajiga ega xodimlarini 2021/2022 o'quv yilida davlat OTMlarining sirtqi va kechki ta'lim shakliga o'qishga kirishi uchun Respublikamizdagi 71 ta tashkilotga tavsiya berish huquqi berildi. Ular tomonidan berilgan yo'llanmaga ko'ra, ishlovchi xodimlar imtihonsiz, suhbat natijalariga ko'ra, tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etilish qoidasining kiritilishi xalqimiz uchun kutilmagan yangilik bo'ldi. Har bir tashkilot 100 tagacha xodimiga shunday yo'llanma berishi mumkinligi ham qayd etildi. Oliy ta'lim islohotining bu qoidasi bozor munosabatlarining mohiyatiga hamoxangdir.

“2022 -2026 YILLARGA MO‘LJALLANGAN YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022 -2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 son farmoni bilan Taraqqiyot strategiyasi va Davlat dasturini amalga oshirish belgilab berildi.

Davlat dasturida oliy ta‘lim sohasini yanada rivojlantirish uchun quyidagi maqsadlar belgilab olindi. Dasturda jami 100 ta maqsad belgilab olindi shulardan 5 tasi oliy ta‘lim tizimiga tegishlidir.

46-maqsad: Oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta‘lim sifatini oshirish.

Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida qabul parametrlarini 2022 yilda oshirish.

2022 yilda yoshlarni oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini 38 foizga yetkazish.

To‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish parametrlarini oliy ta‘lim muassasalari tomonidan mustaqil belgilash tartibini joriy etish.

2026 yilda qabul ko‘rsatkichini kamida 250 mingga yetkazish.

Davlat oliy ta‘lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, shu jumladan ular tomonidan mehnatga haq to‘lash, xodimlar soni, to‘lov-kontrakt miqdori va ta‘lim shaklini mustaqil belgilash amaliyotini yo‘lga qo‘yish.

Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tegishli huquq va vakolatlarini aniq belgilash.

47-maqsad: 2026 yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta‘lim muassasasini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash.

Oliy ta‘lim muassasalarining QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishi uchun maqsadli dasturni ishlab chiqish.

10 ta salohiyatli oliy ta‘lim muassasasini tanlash.

Salohiyati va o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, xalqaro reytinglarga kiritish bo‘yicha 5 yilga mo‘ljallangan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va tasdiqlash.

48-maqsad: Qariyb 100 ming o‘rinli talabalar turar joylarini barpo etish.

Talabalar turar joylarini davlat-xususiy sheriklik asosida barpo etishda loyihalarni moliyalashtirishning maqbul usullarini yo‘lga qo‘yish.

2022 yilda 18 800 o‘rinli 47 ta talabalar turar joylarini barpo etish.

2026 yilga qadar 72 400 o‘rinli 181 ta talabalar turar joylarini barpo etish natijasida talabalarni yotoqxona bilan ta‘minlash darajasini 60 foizdan oshirish.

49-maqsad: 2026 yilgacha nodavlat oliy ta‘lim tashkilotlari sonini kamida 50 taga yetkazish.

2022 yilda Navoiy, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahrida kamida 1 tadan nodavlat oliy ta‘lim tashkilotini tashkil etish orqali ularning jami sonini 34 taga yetkazish.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 5 ta nufuzli mahalliy va xorijiy oliygohlarning filiallarini hamda Toshkent viloyatida 5 ming nafar talabaga mo‘ljallangan Nurafshon davlat universitetini tashkil etish.

Andijon viloyatida 4 ta xususiy oliygoh tashkil etish. Natijada hududdagi yoshlarni oliy ta‘lim bilan qamrovini 23 foizdan 50 foizga yetkazish.

- Namanganda kelgusi 5 yilda 7 ta oliygoh tashkil etib, jami oliy o'quv yurtlari sonini 10 taga yetkazish.
- Samarqand shahrida 20 ming nafar talabaga mo'ljallangan «Yoshlar shaharchasi»ni barpo etib, unda kamida 4 ta xorijiy universitetning filial va kampuslarini joylashtirish. Xorijiy davlatlarning yetakchi texnika universiteti bilan birgalikda Samarqand texnologiya universitetini tashkil etish.
- Urganch davlat universiteti qoshida Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro matematika markazi va jamg'armasini, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filiali va uning qoshida Urganch boshlang'ich raqs san'ati maktab-internatini tashkil etish.
- 2026 yilga qadar respublika hududlarida kamida 1 tadan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali ularning sonini 50 taga yetkazish.
- 50-maqсад: «El-yurt umidi» jamg'armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygoohlarga o'qishga yuborish ko'lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o'qitish.
- Xorijiy davlatlarning eng nufuzli universitetlarida bakalavriat, magistratura va doktoranturada ta'lim olish uchun ochiq saralash tanlovlarini o'tkazish.
- Xorijiy oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat, magistratura va doktorantura ta'lim dasturlarida qatnashish maqsadida Jamg'arma tomonidan ochiq tanlov e'lon qilish va o'tkazish.
- 51-maqсад: Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish.
- Innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda mavjud analoglaridan 50 foizgacha arzonlashtirilgan va sifatli, xom ashyo narxiga nisbatan 2-3 baravar yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o'zlashtirish, shu jumladan umumiy qiymati 165,9 milliard so'mlik jami 195 ta loyihani amalga oshirish.
- Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlarida to'lov-grant asosida o'qishni tashkil etish.

«O'ZBEKISTON - 2030» STRATEGIYASI.

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston -2030» strategiyasi to'g'risidagi 158-son Farmoni 2023 yil 11 sentabrda qabul qilindi.

Mazkur farmon bilan:

1. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan «O'zbekiston - 2030» strategiyasi 1-ilovaga;
2. O'zbekiston - 2030» strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Respublika komissiyasi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlandi.

«O‘zbekiston - 2030» strategiyasini amalga oshirish va uning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida eng ustuvor vazifa etib belgilandi hamda bu bo‘yicha ularning birinchi rahbarlariga shaxsiy mas‘uliyat yuklatildi.

«O‘zbekiston - 2030» strategiyasida quyidagi asosiy g‘oyalar aks ettirilgan:

-barqaror iqtisodiy o‘sinh orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish;

-aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta‘lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;

-aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;

-xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;

-mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta‘minlash.

«O‘zbekiston - 2030» strategiyasida ta‘lim tizimida quyidagi maqsadlar bo‘yicha 2030 yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari belgilab berilgan.

I. HAR BIR INSONGA O‘Z SALOHIYATINI RO‘YOBGA CHIQARISHI UCHUN MUNOSIB SHAROITLARNI YARATISH

1.1. Ta‘lim tizimi islohotlari

Maktabgacha ta‘lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to‘liq qamrovini ta‘minlash. Bolalarni maktabgacha ta‘lim va tayyorlov guruhlar bilan to‘liq qamrab olish.

Davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta‘minlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang‘ich kompyuter savodxonligi ko‘nikmalarini shakllantirish.

100 foiz maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta‘minlash.

Umumiy o‘rta ta‘lim tizimida «Ta‘lim uchun qulay muhit» dasturini amalga oshirish.

Olis va chekka hududlarda joylashgan 715 ta umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari o‘quvchilari uchun bepul avtobuslarni yo‘lga qo‘yish.

Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarini toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan to‘liq ta‘minlash.

3. Umumiy o‘rta ta‘lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish. 700 ga yaqin nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo‘llanmalar va mobil ilovalar yaratish.

Yangi avlod darsliklari asosida planshetlar uchun 1 000 ta multimedia dasturlarini yaratish.

Ta‘lim tashkilotlariga har yili 500 nafar «til egalari» bo‘lgan xorijiy mutaxassislarni jalb etish.

Barcha umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida kasb-hunarlarga o‘rgatish kurslarini joriy etish.

Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarning ta‘lim metodikasini barcha umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining o‘quv jarayonlariga joriy qilish.

4. Pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish. 1 000 nafar tarbiyachi va o'qituvchilarni xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining o'rtacha ish haqini 2 barobar oshirish.

500 ming nafar maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarining malakasini uzluksiz oshirish.

Ehtiyoj yuqori bo'lgan yo'nalishlar va olis hududlardagi abituriyentlar uchun pedagogik ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlarni to'liq davlat granti asosida tayyorlash tizimini joriy qilish.

5. Umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish uchun xususiy sektorni keng jalb qilish.

Nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari sonini 1 000 taga yetkazish.

Kelgusi besh yilda nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish uchun 1 trillion so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratish.

2024 yildan boshlab har yili davlat-xususiy sheriklik asosida kamida 100 tadan umumiy o'rta ta'lim muassasalari qurilishi bo'yicha shartnomalar tuzish.

Nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar ulushini 3 barobarga oshirish.

Davlat-xususiy sheriklik asosida va xalqaro moliya institutlaridan jalb qilinadigan mablag'lar hisobidan 2 milliard dollarlik umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish loyihalarini amalga oshirish.

6. Professional ta'lim tizimini rivojlantirish orqali o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatish. 700 ta professional ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va moddiy-texnika bazasini takomillashtirish.

14 ta hududiy professional tayyorgarlik markazlarini tashkil etish, malaka toifasiga ega bo'lgan pedagog kadrlar ulushini 50 foizga, masofaviy yoki aralash shakllarda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslari ulushini 30 foizga yetkazish.

O'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlashda davlat grantini axborot texnologiyalari, qurilish, transport va logistika yo'nalishlarida 100 foizga yetkazish.

7. Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish. Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan to'liq ta'minlash.

30 ta oliy ta'lim muassasasining ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish.

«Top-500»ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo'shma ta'lim dasturi asosida «ikki diplomli tizim»ni joriy etish.

10 ta oliy ta'lim muassasasini dunyoning eng nufuzli «Top-1 000» oliy ta'lim tashkilotlari reytingiga kiritishga erishish.

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish.

8. Oliy ta'lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash. 5 ta oliy ta'lim muassasasini milliy tadqiqot oliygohlariga aylantirish.

Qo'shimcha 120 ming o'rinli o'quv binolari hamda 150 ming o'rinli talabalar turar joylarini qurish.

Kutubxonalarni kamida 1 million ta zamonaviy adabiyotlar bilan to'ldirish va kutubxona fondini to'liq raqamlashtirish.

9. Fundamental tadqiqotlarni zamon talablaridan kelib chiqib yangi yo'nalishlar bilan boyitish. Fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish uchun 3 trillion so'm mablag' ajratish.

Fundamental tadqiqot yo'nalishi bo'yicha 8 ta yetakchi xorijiy ilmiy maktablar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish.

Til va adabiyot, tarix, arxeologiya, madaniyat va san'at yo'nalishlaridagi ilmiy dasturlar uchun 2 trillion so'm ajratish.

10. Iqtisodiyotning eng tez o'sib borayotgan yo'nalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, «korxona — oliygoh — ilmiy tashkilot» klaster tizimini joriy etish. Amaliy tadqiqotlarga Davlat budjetidan 4 trillion so'm mablag' yo'naltirish.

Iqtisodiyot tarmoqlarining «drayver» yo'nalishlarida 850 turdagi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish.

Amaliy tadqiqotlar natijalari asosida 2,5 mingdan ziyod yangi ilmiy ishlanmalar yaratish.

Transport va logistika, qishloq xo'jaligida hosildorlik, energetika, biotexnologiya, geologiya va metallni qayta ishlash, mashinasozlik va elektronika yo'nalishlarida 8 ta ilmiy ishlab-chiqarish klasterini tashkil etish.

11. Yosh tadqiqotchilarning ulushini oshirish, ularning ilmiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlash. 40 yoshgacha bo'lgan tadqiqotchilarning ulushini kamida 60 foizga yetkazish, ilmiy tashkilot xodimlarining ish haqini o'rtacha 2 barobarga oshirish.

Ilmiy, amaliy, innovatsion va startap loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha yillik tanlovlar sonini 20 taga yetkazish.

Stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura, doktorantura hamda maqsadli doktorantura kvotalari sonini 5 200 taga yetkazish.

12. Barcha yo'nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash. O'zbekiston Global Innovatsion Indeksda Top-50 talik mamlakatlar ro'yxatiga kirishini ta'minlash.

Har bir million aholiga to'g'ri keladigan tadqiqotchilar sonini 2 ming nafarga yetkazish.

Ichki va tashqi bozorlarda tijoratlashtirish natijasida yaratiladigan yangi innovatsion ishlanmalar sonini 2 baravarga oshirish.

O'ZBEKISTONNING YANGI TARAQQIYOT DAVRIDA TA'LIM-TARBIYA VA ILM-FAN SOHALARINI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDAGI FARMONI.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani,

ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, milliy ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

Mamlakatimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda pedagog xodimlarga bo'lgan hurmat-e'tiborni yanada oshirish, o'quvchi va talabalarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, tizimda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6108-sonli Farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmonda, O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar:

- mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish;

- dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish;

- ta'lim-tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va murabbiylari, professor-o'qituvchilari va ilm-fan sohalar vakillarining jamiyatimizdagi o'rni va maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag'batlantirish;

- pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida takomillashtirib borish;

- ilmiy-tadqiqot va ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xususiy sektorning salmog'ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan xolda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish;

- ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish;

-ta'lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish, respublika ta'lim tashkilotlarini nufuzli xalqaro reytinglarga kiritish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish belgilab berildi.

Shuningdek, farmonning 17-bandida, Oliy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingi nufuzini oshirish maqsadida:

milliy reytingda so'nggi 3 yil davomida doimiy ravishda birinchi 3 ta o'rindan birini egallab kelayotgan oliy ta'lim tashkilotlariga oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash bo'yicha akademik va moliyaviy mustaqillik berish hamda mustaqillik mezonlari Yevropa universitetlari assotsiatsiyasi standartlariga muvofiq qabul qilinishi;

milliy reytingda birinchi 10 ta o'rindan birini egallagan oliy ta'lim tashkilotiga mavjud ixtisosliklar bo'yicha ilmiy unvonlarni mustaqil berish vakolati berilishi;

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va tizimida oliy ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar 2021 yil 1 fevralga qadar 2030 yilgacha xalqaro reytinglarda 2 ta oliy ta'lim tashkilotini - birinchi 500 ta o'rindagi, 8 ta oliy ta'lim tashkilotini - birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim tashkilotlari ro'yxatiga kiritish uchun tegishincha "2+500" va "8+1000" loyihalarini ishlab chiqsin va taqdimot qilish belgilab qo'yildi.

Shuningdek, Oliy ta'lim sohasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari Oliy ta'lim vazirligi bilan birgalikda 2021 yil 1 sentabrga qadar har bir hududda nodavlat, jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida kamida bittadan oliy ta'lim tashkilotini tashkil qilinishi;

Axborot texnologiyalari, biologiya, kimyo va geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajalarini berish vakolati taqdim etiladigan ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim tashkilotlari ro'yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020 yildagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4884-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorning 14-bandida, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2021/2022 o'quv yilidan boshlab:

-oliy ta'lim tashkilotlarining pedagogik bo'lmagan bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalari uchun ixtiyoriy ravishda o'zlashtiriladigan pedagogik tayyorgarlik modullarini ishlab chiqish va amaliyotga kiritish;

-pedagogik tayyorgarlik modullarining mazmuni va hajmiga qo'yiladigan talablarni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan kelishish;

-barcha oliy ta'lim tashkilotlarida axborot-resurs markazlari bazasida mavjud darslik, o'quv-uslubiy va boshqa qo'llanmalar raqamli formatga o'tkazilib, ularning elektron platformasi shakllantirilishini ta'minlasin hamda ular bo'yicha raqamli yagona axborot qidiruv tizimini joriy qilish;

-har bir fan kesimida ma'ruza, amaliy (seminar) va laboratoriya mashg'ulotlari, mustaqil ishlar bo'yicha elektron modullarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

-davlat oliy ta'lim tashkilotlariga xorijiy talabalarni jalb etish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida ta'lim xorijiy tillarda olib boriladigan guruhlar salmog'ini bosqichma-bosqich oshirib borish choralarini ko'rish;

-xorijiy talabalarni davlat oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilishni yilda ikki marta semestrning boshida tashkil qilish vazifalari yuklatildi.

**“DAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING AKADEMIK VA
TASHKILIY-BOSHQARUV MUSTAQILLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA
QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RSIDA”GI PQ 60-SON
QARORI.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar ijrosini izchil ta'minlash, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining mustaqilligini kengaytirish, ular faoliyatida davlat ma'muriy boshqaruvini keskin kamaytirish hamda shu orqali o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga javob bera oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlovchi davlat oliy ta'lim muassasalarini shakllantirish maqsadida “Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaror qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan 2022/2023 o'quv yilidan boshlab moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalariga quyidagi qo'shimcha vakolatlar berilishi belgilab berildi:

a) akademik mustaqillik sohasida:

o'quv rejalari, o'quv dasturlari, malaka talablarini kasbiy standartlar asosida tasdiqlash, ta'lim tilini hamda ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim olish shaklini belgilash;

bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun o'qish davomiyligi muddatlarini belgilash;

doktoranturada to'lov-kontrakt asosida o'qish qiymatini belgilash, budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan grant ajratish orqali doktoranturaga tanlov asosida kvotaga qo'shimcha ravishda qabul qilish;

doktorant va mustaqil izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik qilish tartibini tasdiqlash;

magistratura bosqichida ta'limning sirtqi, masofaviy va kechki shakllarini joriy etish, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha qo'sh malakalar, shu jumladan amaliy malakalar berish tizimini joriy qilish;

o'zaro kelishuvlar asosida oliy ta'lim muassasalari bilan akademik mobillikni amalga oshirish;

oliy ta'lim muassasasi va uning tuzilmasidagi ta'lim muassasalari uchun o'z grifi asosida darsliklar hamda boshqa o'quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish va nashr etish;

ta'lim sifatini ichki nazorat qilish mexanizmlarini belgilash va joriy etish;

b) tashkiliy-boshqaruvdagi mustaqillik sohasida:

faoliyatining asosiy yo‘nalishi ta’lim, ilm-fan, uning natijalarini joriy etish hamda tijoratlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan, davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilmaydigan tarkibiy tuzilmalar, tijorat va notijorat tashkilotlarni tashkil etish;

oliy ta’lim muassasalari uchun belgilangan normativlardan qat’i nazar muassasaning tuzilmasini tasdiqlash va shtat birliklari sonini belgilash;

mehnat bozoridagi ehtiyojdan kelib chiqib, yangi ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarni ochish, amaldagi ta’lim yo‘nalishlari hamda mutaxassisliklarni tugatish;

pedagog va boshqa xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan ozod etish va ichki rotatsiyasiga oid tartibni belgilash;

xorijiy davlat fuqarolarini to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish va masofaviy ta’lim olish shaklida o‘qitishni tashkil etish.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 24.12.2021 YILDAGI
“DAVLAT OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA MOLIVAVIY
MUSTAQILLIK BERISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA”GI
PQ 61-SON QARORI.**

Oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, davlat oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalarini mustaqil hal etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga mablag‘larni jalb etish imkoniyatini kengaytirish hamda oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida raqobat muhitini rivojlantirish maqsadida “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorda:

Moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta’lim muassasalari ro‘yxati tasdiqlandi.

Moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta’lim muassasalariga 2022 yil 1 yanvardan boshlab quyidagi masalalar bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berildi:

ta’lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatini belgilash;

talabalarning to‘lov-kontrakt mablag‘larini to‘lash muddatlarini belgilash va uzaytirish;

ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llay oladigan va ilmiy izlanish olib boradigan mahalliy hamda xorijiy professor-o‘qituvchi va mutaxassislarni shartnoma asosida jalb qilish;

o‘quv-ilmiy jarayonlarga jalb etilgan xorijiy yuqori malakali mutaxassislar mehnatiga haq to‘lash miqdorlarini bozor konyunkturasidan kelib chiqib belgilashga oid qarorlar qabul qilish;

professor-o‘qituvchilar shtat birliklarini kiritish meyorlarini ishlab chiqish;

o‘z mablag‘lari hisobidan talabalar uchun stipendiya va grantlar ajratish;

xorijiy davlatlardan o‘quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o‘quv qo‘llanmalarni mualliflik huquqi bo‘lgan ishlab chiqaruvchilardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarid qilish;

bo'sh turgan bino va inshootlarda pullik xizmatlar ko'rsatish tartibini belgilash; avtotransport vositalarining yo'l bosish yillik limiti va ularga xizmat ko'rsatish talablarini belgilash.

Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalarida kuzatuv kengashlari tashkil etildi.

Kuzatuv Kengashlarining asosiy vakolatlari etib quyidagilar belgilandi:

oliy ta'lim muassasasining uzoq va o'rta muddatli strategik rivojlantirish dasturini tasdiqlash, xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingining yuqori o'rinlaridan joy olish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni belgilash hamda uning amalga oshirilishini nazorat qilib borish;

oliy ta'lim muassasasining o'rta muddat uchun shakllantiriladigan biznes-rejasi hamda daromadlar va xarajatlar parametrlarini tasdiqlash, ularning ijrosini muhokama qilish;

ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar hamda ixtisosliklar bo'yicha to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul parametrlarini belgilash to'g'risida qaror qabul qilish;

oliy ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan vazifalar ijrosi, maqsadli ko'rsatkichlarga erishish holati bo'yicha rektor va prorektorlar faoliyatini o'rganish hamda axborotini eshitish;

oliy ta'lim muassasasining ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatiga moliyaviy nazorat o'tkazish uchun qo'shimcha topshiriq berish hamda nazorat tadbirlarining natijasi yuzasidan hisobot olish;

oliy ta'lim muassasasini rivojlantirish va uning moliyaviy faoliyati bilan bog'liq masalalarni hal etish, shu jumladan nodavlat notijorat tashkiloti ko'rinishida maqsadli kapital jamg'armasini shakllantirish;

ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalarining innovatsion va boshqa jamg'armalar mablag'larini sarflash tartibi va yo'nalishlarini mustaqil belgilash;

oliy ta'lim muassasasi rahbari va xodimlari hamda professor-o'qituvchilari faoliyatiga baho berish, ular faoliyatining samaradorligini baholash mezonlarini (KPI) tasdiqlash;

oliy ta'lim muassasasi hamda ular huzuridagi ta'lim va ilmiy muassasalarning rahbari va xodimlari, professor-o'qituvchilari, shuningdek, xorijiy mutaxassislar uchun mehnatga haq to'lash miqdori va samaradorlik mezonlariga asoslangan rag'batlantirish tartibini mustaqil belgilash;

oliy ta'lim muassasasining budjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan foydalanish tartibini, shu jumladan xarajatlarning taqsimlanish ulushini mustaqil belgilash.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING

“MA'MURIY ISLOHOTLAR DOIRASIDA OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR SOHASIDA DAVLAT BOSHQARUVINI SAMARALI TASHKIL QILISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA”GI QARORI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 25 yanvardagi «Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-14-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 3 iyuldagi

“Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 200-son Qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan:

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatining ustuvor yo’nalishlari 1-ilovaga;

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi tashkilotlarni qayta tashkil qilish dasturi 2-ilovaga;

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tashkiliy tuzilmasi 3-ilovaga;

Innovatsion rivojlanish agentligining tashkiliy tuzilmasi 4-ilovaga;

Bilim va malakalarni baholash agentligining tashkiliy tuzilmasi 5-ilovaga;

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasini transformatsiya qilish jarayonlarini jadallashtirish bo’yicha «yo’l xaritasi» 6-ilovaga muvofiq tasdiqlandi.

Qarorda oliy ta’lim tizimini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish va ta’lim sifatini oshirish maqsadida:

bakalavriat ta’lim yo’nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ilg’or xorijiy tajriba hamda iqtisodiyot soha va tarmoqlarining kadrlarga bo’lgan ehtiyoji asosida qayta ko’rib chiqish;

oliy ta’lim dasturlari yetakchi oliy ta’lim muassasalari bazasida xalqaro tashkilotlarning ta’lim sohalari reytingida yuqori 200 talik ro’yxatiga kirgan xorijiy oliy ta’lim tashkilotlarining dasturi asosida qayta ishlab chiqish;

oliy ta’lim muassasalarining o’quv laboratoriya bazasiga qo’yilgan talablarni ta’lim dasturlariga, ilmiy laboratoriyalar iqtisodiyot soha va tarmoqlaridagi texnologik jarayonlarga moslashtirish;

professor-o’qituvchilar yuklamasi o’quv va ilmiy faoliyatga, o’quv jarayonlari esa talabalarda mustaqil ta’lim olish ko’nikmasini rivojlantirishga yo’naltirish lozimligi belgilab berildi.

Shuningdek, ta’lim tashkilotlarini tashqi baholashning yangi tizimini joriy etish to’g’risidagi taklifi ma’qullandi, va unga muvofiq:

a) ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o’tkazish tartibi bekor qilinib, kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o’tkazish tizimi joriy etiladi.

Bunda:

kompleks davlat akkreditatsiyasi har 4 yilda ta’lim tashkilotlarini tashqi baholash natijalari asosida o’tkaziladi;

kompleks davlat akkreditatsiyasidan o’tmagan ta’lim tashkilotiga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun 6 oygacha muddat beriladi;

aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etmagan ta’lim tashkiloti faoliyatini tugatish (litsenziyasini bekor qilish) yoki ta’lim dasturini yopish to’g’risida qaror qabul qilinadi;

litsenziyasi bekor qilingan ta’lim tashkiloti yoki yopilgan ta’lim dasturida tahsil olayotgan talabalarga o’qishini davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlarining mos va turdosh ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklariga belgilangan tartibda ko’chirish huquqi beriladi;

maxsus davlat akkreditatsiyasi kadrlar tayyorlash yo’lga qo’yilayotgan ta’lim dasturlari bo’yicha o’quv jarayoni boshlanishidan oldin o’tkaziladi;

maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tmagan ta'lim dasturlari bo'yicha talaba va o'quvchilarni o'qitishga yo'l qo'yilmaydi;

b) ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish amaliyoti joriy etiladi. Bunda:

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi respublikada tan olinadigan xalqaro akkreditatsiya tashkilotlariga qo'yiladigan talablarni belgilaydi va ularning reyestrini yuritadi;

mazkur reyestrga kiritilgan xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari tomonidan akkreditatsiyadan o'tkazilgan ta'lim dasturlari navbatdagi kompleks davlat akkreditatsiyasida tekshiruvdan o'tkazilmaydi;

v) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tan olingan nufuzli xalqaro reyting tashkilotlarining amaldagi ro'yxatida birinchi 1 000 talikka kirgan oliy ta'lim tashkilotlari navbatdagi kompleks davlat akkreditatsiyasidan ozod qilinadi;

g) ta'lim tashkilotlarining davlat akkreditatsiyasi to'lov asosida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan o'tkaziladi hamda to'lov, jumladan akkreditatsiyani o'tkazishga jalb qilingan mutaxassislar mehnatiga haq to'lash uchun yo'naltiriladi.

Respublikada faoliyat yurituvchi oliy ta'lim tashkilotlarining reytingini yuritish bo'yicha:

a) reyting Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ta'lim tashkilotining faoliyati va ta'lim jarayoniga aralashmagan holda ma'lumotlarni axborot tizimi orqali olish yo'li bilan yuritiladi;

b) 2024 yil 1 yanvardan boshlab:

reyting davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari bo'yicha umumiy aniqlanadi;

so'nggi besh yil davomida reytingda birinchi 10 talik o'rinni egallagan oliy ta'lim tashkilotlari navbatdagi kompleks davlat akkreditatsiyasidan ozod qilinadi;

v) 2025 yil 1 yanvardan boshlab:

nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga davlat buyurtmasi asosida kadrlar tayyorlash bo'yicha kvota ularning reytingdagi o'rniga muvofiq ajratiladi;

oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim sohalari kesimidagi reytingini yuritish yo'lga qo'yiladi.

Belgilab qo'yilsinki:

a) 2023/2024 o'quv yilidan boshlab:

akademik litseylarga o'quvchilarni qabul qilishda yozma imtihon asosida dastlabki saralash bosqichi bekor qilinadi;

kollej va texnikumlarning ta'lim dasturlariga davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari ikki baravarga oshiriladi;

oliy ta'lim muassasalariga hujjat topshirishda abituriyentlarga «davlat granti» yoki «ta'lim yo'nalishi» ustuvorliklaridan birini tanlash va tanlagan ustuvorligi bo'yicha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari ketma-ketligida tanlovda ishtirok etish huquqi beriladi;

talabaning ta'lim yo'nalishiga mos startap loyihasini hamda ratsionalizatorlik g'oyasini bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi sifatida himoya qilish amaliyoti joriy etiladi;

oliy ta'lim muassasalari talabalarining iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarida haq to'lanadigan qisqa muddatli maqsadli ishlab chiqarish amaliyotlari tashkil etiladi hamda Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi;

b) 2024/2025 o'quv yilidan boshlab:

oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini topshirish «avval test, so'ng tanlov» tamoyili asosida tashkil etiladi hamda abituriyentlarga test sinovi natijasida to'plagan balidan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim yo'nalishi va shaklini tanlash imkoniyati yaratiladi;

umumta'lim fanlari bo'yicha xalqaro imtihon natijalari bo'yicha sertifikatlar davlat oliy ta'lim muassasalariga qabul qilishda inobatga olinadi. Bunda, tan olingan xalqaro sertifikatlar ro'yxati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qarori bilan tasdiqlanadi;

yuqori salohiyatli akademik litseylar o'quv dasturlari xalqaro dasturlar («International Advanced Levels», «International Baccalaureate») asosida ishlab chiqiladi;

v) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan vakolati doirasida nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish vakolatli organni xabardor qilish tartibida amalga oshiriladi.

Belgilansinki, davlat ilmiy dasturlarini shakllantirishda quyidagi tartib joriy etiladi:

a) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan:

iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarning mavjud muammolari ilmiy yechimiga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi (tematik ilmiy mavzular ro'yxati) tasdiqlanadi;

fan yo'nalishlari bo'yicha tegishli ilmiy-texnik kengashlar tomonidan loyihalarning ilmiy ekspertizasi tashkil etiladi;

davlat ilmiy dasturlariga kiritiladigan loyihalarning yakuniy ro'yxati tasdiqlanadi;

b) Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan:

tasdiqlangan tematik ilmiy mavzular bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi talablariga muvofiq tanlovlar o'tkaziladi, shuningdek, ilmiy loyihalarning texnik va moliyaviy-iqtisodiy ekspertizasi tashkil etiladi;

tasdiqlangan loyihalar bo'yicha shartnomalar rasmiylashtiriladi;

ilmiy loyihalarning oraliq va yakuniy monitoringi yuritiladi;

v) davlat ilmiy dasturlariga kiritilgan loyihalar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Ilm-fan va innovatsiyalar kengashi qaroriga asosan Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi;

g) ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasiga muvofiq bajariladigan ilmiy loyihalar bo'yicha tanlovlar o'tkazish, loyihalarni texnik, ilmiy va moliyaviy-iqtisodiy ekspertizadan o'tkazish hamda tanlab olish jarayonlari Davlat ilmiy dasturlarining yagona intellektual elektron platformasi orqali amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi tegishli fan yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-texnik kengashlar faoliyati quyidagi tartibda tashkil etilsin:

ilmiy-texnik kengashlar «Scopus» va «Web of Science» xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalarida «Xirsh» indeksiga ega (bundan madaniyat, san'at, o'zbek tili, tarix sohalari mustasno) hamda yangi ilmiy yo'nalishlarda xalqaro darajada ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanayotgan olimlar orasidan 21 nafar tarkibda shakllantiriladi;

ilmiy-texnik kengashlar a'zolarining yarmi har 6 oyda almashtiriladi va ilmiy-texnik kengashlar tarkibi bir yilda to'liq yangilanadi;

davlat buyurtmasi doirasida shakllantirilgan loyihalarning ilmiy-texnik kengashlardagi muhokamasiga xorijlik (vatandosh) olimlarni ekspert sifatida jalb etish hamda muhokamalarni onlayn tarzda o'tkazish amaliyoti joriy etiladi.

Davlat ilmiy dasturlari natijadorligini oshirish bo'yicha 2023 yil 1 avgustdan boshlab quyidagi tartib joriy etilsin:

a) fundamental loyihalar bo'yicha — xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida faoliyat ko'rsatayotgan va loyiha mavzusi yo'nalishida muhim natijalarga erishgan, «Scopus» va «Web of Science» xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalarida «Xirsh» indeksi 5 va undan yuqori bo'lgan yetakchi olimlar hamrahbar sifatida jalb qilinadi;

b) yangi ishlanmalar asosida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha:

Innovatsion rivojlanish agentligi tarmoq tashkilotlarining innovatsiyalarga (yangi ishlanma va texnologiyalarga) bo'lgan ehtiyojlari asosida tijoratlashtirish loyihalarini va innovatsion «spin-off» korxonasi loyihasini tanlov asosida aniqlaydi;

tanlov natijalariga ko'ra g'olib deb topilgan tijoratlashtirish loyihalari va innovatsion «spin-off» korxonasi loyihasi Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi;

innovatsion mahsulotlarni kelgusida seriyalab sanoatda ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida tanlov natijalariga ko'ra moliyalashtirilgan har bir tijoratlashtirish loyihasi va innovatsion «spin-off» korxonasi loyihasi hamda yakunlangan ilmiy loyihalar tegishli tarmoq korxonasiga birlashtiriladi;

v) tezkor ilmiy yechimni ta'minlash talab etiladigan yo'nalishlar (yuqumli kasalliklar, texnogen holatlar, iqlim o'zgarishi va tabiat hodisalariga oid, mikroelektronika texnologiyalari) bo'yicha 1 yilgacha bo'lgan qisqa muddatli maqsadli amaliy va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tartibi joriy etiladi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziriga quyidagi vakolatlar berildi:

bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga mos test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi, test topshiriqlari soni va baholash mezonlarini tasdiqlash;

respublika oliy ta'lim tashkilotlariga qabul jarayonida kasbiy (ijodiy) imtihonlarga qo'yiladigan umumiy talablarni belgilash;

talabalar o'qishini ko'chirish va magistraturaga kirishda ruxsat etiladigan turdosh ta'lim yo'nalishlari ro'yxati hamda o'rta maxsus, professional, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limga kirishda tan olinadigan xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro sertifikatlar ro'yxatini tasdiqlash;

har yili xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejalarini tasdiqlash.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTINING “TA’LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLARNI
JADALLASHTIRISH BO‘YICHA QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR
TO‘G‘RISIDA” QARORI

Ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, ta’lim tashkilotlari faoliyatini ilg‘or xorijiy amaliyotlar asosida tashkil etish, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatini qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2024 yildagi “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 54-son qarori qabul qilindi va mazkur qaror bilan bilan:

1-ilovada, "Ta’lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisining asosiy faoliyat yo‘nalishlari;

2-ilovada, Ta’lim sohasini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish bo‘yicha "Yo‘l xaritasi";

3-ilovada, "Ta’lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisi tomonidan birinchi bosqichda faoliyati takomillashtiriladigan muassasalar ro‘yxati tasdiqlandi.

Qarorda Loyiha ofisining 2024 yilda amalga oshirishi belgilangan quyidagi:

-pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tahlil qilish, o‘qituvchilarning bilimi va qiziqishiga mos bo‘lgan tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlarini joriy qilish, mazkur jarayonga nodavlat va xalqaro tashkilotlarni jalb qilish;

-pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim tashkilotlarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning ta’lim dasturlarini umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari o‘quv dasturlari bilan uyg‘unlashtirish;

-professional ta’limdan so‘ng oliy ta’limni davom ettirish imkoniyatlarini yanada kengaytirish, uch yillik ta’lim dasturlari asosida amaliy bakalavriat bo‘yicha kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish;

-o‘quvchilar rivojlanishiga psixologik-pedagogik jihatdan tashxis qo‘yish, ularning qobiliyati va moyilliklarini aniqlash bo‘yicha zamonaviy usullarini joriy qilish hamda yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish faoliyatini takomillashtirish;

-ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarining ayrim funksiyalarini (ta’lim tashkilotlari reytingini aniqlash, ta’lim dasturlarini akkreditatsiyadan o‘tkazish va boshqalar) nodavlat, shu jumladan xalqaro tashkilotlarga outsorsingga berish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

-ta’lim sohasida xususiy sektor ulushini yanada oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, jumladan uni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy qilish vazifalari yuklatildi.

Shuningdek, loyiha ofisiga quyidagi:

-tegishli vazirlik va idoralar, ularning tizimidagi muassasalar, nodavlat ta’lim tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot muassasalarining tajribali mutaxassislarini shartnoma asosida Loyiha ofisi faoliyatiga jalb qilish;

-ishlab chiqilgan loyihalarni ta’lim tashkiloti, tuman (shahar) yoki hudud misolida tajriba-sinovdan o‘tkazish;

-davlat organlari va tashkilotlaridan zarur statistik, tahliliy hamda boshqa ma’lumotlarni so‘rash va olish;

-davlat organlari va tashkilotlarining elektron axborot tizimlaridan bepul foydalanish;

-Loyiha ofisi direktoriga xorijiy mutaxassislar, ekspert, konsultant va maslahatchilarni to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida jalb etish, ishga qabul qilish va ularga ish haqini milliy yoki chet el valyutasida, shu jumladan mablag'larni ularning xorijdagi hisobvaraqlariga o'tkazish orqali to'lash, shuningdek, tegishli vazirlik va idoralar, ularning tarkibiy tuzilmalari mutaxassislarini islohotlarni amalga oshirish jarayonlariga jalb qilish, ular ishtirokida ekspert komissiyalari va ishchi guruhlarini tuzish huquqi berildi.

2.2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAXKAMASINING QARORLARI.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 24 dekabrda 1030-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 24 dekabrda "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida"gi 1030-son qarori bilan "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom amalga kiritilgan

Mazkur Nizom ilm-fan, ta'lim va tajriba-konstruktorlik sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga (shu jumladan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari hamda davlat sud-ekspertiza muassasalarining xodimlariga) qo'shimcha haq to'lash tartibini belgilaydi.

Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarining fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga (yoki xorijiy mamlakatlarning ularga tenglashtirilgan darajasiga) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga (yoki xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan darajasiga) ega bo'lgan xodimlariga asosiy ish joyi bo'yicha ushbu Nizomga muvofiq qo'shimcha haq belgilanadi.

Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

lavozim maoshi — kalendar oyi uchun muayyan murakkablikdagi mehnat (lavozim) vazifalarini bajarish uchun xodimning mehnatiga haq to'lashning qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilangan miqdori (kompensatsiya, rag'batlantirish va ijtimoiy to'lovlar, nafaqalar va boshqa qo'shimcha to'lovlarni hisobga olmagan holda);

qo'shimcha haq — xodimlar mehnatining sifati va natijadorligini rag'batlantirish maqsadida belgilangan lavozim maoshiga nisbatan foiz hisobida belgilangan to'lov;

bir martalik qo'shimcha haq — amalga oshirilgan muayyan ish bo'yicha natijaga erishilgani uchun to'lanadigan bir martalik qo'shimcha to'lov;

har oylik qo'shimcha haq — amalga oshirilgan muayyan ish bo'yicha natijaga erishilgani uchun har oyda to'lanadigan qo'shimcha to'lov;

ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkiloti (keyingi o'rinlarda tashkilot deb ataladi) — ustav asosida ilmiy va ta'lim faoliyati bilan shug'ullanuvchi budjet tashkiloti yoki budjet mablag'lari oluvchi tashkilot;

intellektual faoliyat natijasi — intellektual mulk obyekti, shu jumladan, fan, adabiyot, san'at, ijro, fonogramma, efir yoki kabel orqali namoyish etilgan ko'rsatuvlar, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlari, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar, ma'lumotlar bazalari, oshkor qilinmagan ma'lumotlar, shu jumladan, ishlab chiqarish sirlari (nou-xau), tovar belgilari, firma nomlari, tovar kelib chiqqan joy nomlari va qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan intellektual faoliyat natijasi.

Tashkilotning kollegial organi ushbu Nizomga muvofiq muayyan mezonlar asosida tarkibiy bo'linma rahbarining tavsiyasiga ko'ra xodimga qo'shimcha haq miqdori va to'lov davrini belgilash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Tashkilot rahbari uchun ushbu Nizomga muvofiq qo'shimcha haq belgilash yuqori turuvchi tashkilot roziligi bilan amalga oshiriladi.

Erishilgan natijalarning mezonlarga muvofiqligini baholash taqdim etilgan tasdiqlovchi hujjatlarga asosan amalga oshiriladi.

Kollegial organ qo'shimcha haq belgilash to'g'risida qabul qilingan qarorning xolisligi uchun mas'ul hisoblanadi.

Tashkilotning yuqori turuvchi organlari qo'shimcha haq belgilash bo'yicha kollegial organlar ishini tashkil etish tartibini tasdiqlaydi.

Qo'shimcha haq xodim tomonidan mazkur Nizomda ko'rsatilgan mezonlar bo'yicha bajargan ishlari uchun belgilanadi.

Qo'shimcha haq to'lashda erishilgan natijalar bir marta hisobga olinadi.

Xodimning tegishli ilmiy darajaga ega bo'lmagan davrining faoliyat natijalari hisobga olinmaydi.

Qo'shimcha haqning bir martalik yoki oylik shakli joriy yilda oxirgi 12 oy davomidagi (kalendar yil yakunlari) faoliyati natijalari tahliliga ko'ra belgilanadi.

Qo'shimcha oylik to'lov belgilashning eng ko'p muddati 12 oydan oshmasligi kerak.

Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodim boshqa ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotiga ishga o'tgan taqdirda, unga qo'shimcha haq belgilashda ushbu Nizomda belgilangan talablar asosida faoliyati natijalari hisobga olinadi.

Qo'shimcha haq xodim asosiy lavozim bo'yicha egallab turgan stavkasiga mutanosib ravishda har oyda hisoblanadigan bazaviy lavozim maoshiga nisbatan belgilanadi, bunda xodimning ta'til davri uchun qo'shimcha haq to'lov amalga oshirilmaydi.

Bunda, ushbu bandda nazarda tutilgan tartib oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarning tasdiqlangan shtatlar jadvalida turuvchi asosiy ish faoliyati faqat ilmiy loyiha rahbari yoki ishtirokchisi bo'lgan ilmiy xodimlar lavozim maoshiga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha haq belgilash talablari, miqdori va muddatlari:

Lavozim maoshiga har oylik qo'shimcha haq xodimning faoliyati natijalari asosida quyidagicha o'rnatilishi mumkin:

a) oliy ta'lim muassasasi elektron platformasiga o'quv yuklamasida nazarda tutilganidan tashqari mustaqil ishlab chiqilgan va o'quv jarayonida foydalanilayotgan o'z o'quv uslubiy majmualarini (modul dasturi, o'quv kontenti, muammoli vaziyat, kazus test, video dars) joylashtirganligi uchun;

har bir majmua (modul) uchun o'zbek yoki rus tilida, shuningdek, chet tili mutaxassisliklari bo'yicha lavozim maoshiga nisbatan 5 foizgacha;

xorijiy tilda (til mutaxassisligidan tashqari) har bir majmua (modul) uchun lavozim maoshiga nisbatan 10 foizgacha belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiy qo'shimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 15 foizdan oshmasligi lozim;

b) hamkor tashkilotlar bilan birgalikda ilmiy yoki laboratoriya vositalaridan keng foydalangan holda yangi o'quv mahsulotlari (trening kurslari, uslubiy ta'minotli o'yinlar, uslubiy qo'llanmalar)ni ishlab chiqqani va joriy etgani uchun:

o'zbek yoki rus tilida, shuningdek, til mutaxassisliklari bo'yicha chet tilida har bir mahsulot (majmua) uchun lavozim maoshiga nisbatan 10 foizgacha;

xorijiy tilda (til mutaxassisliklaridan tashqari) har bir mahsulot (majmua) uchun lavozim maoshiga nisbatan 20 foizgacha belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiy qo'shimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 30 foizdan oshmasligi lozim;

v1) ixtisoslashgan ilmiy kengashlar huzuridagi ixtisosliklar bo'yicha (chet tili va mutaxassislik fanlaridan) malakaviy imtihon komissiyasi hamda oliy ta'limdan keyingi ta'limning barcha shakllarida o'qishga talabgorlarni tanlov olish uchun kirish imtihonlar va izlanuvchilarni monitoringdan o'tkazish jarayonida komissiya (ishchi guruh) a'zosi bo'lganligi uchun lavozim maoshiga nisbatan 5 foiz miqdorida belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiy qo'shimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 15 foizdan oshmasligi lozim.

g) oliy ta'lim muassasalarining birinchi mingtalik (top-1000) yoki fan yo'nalishlari bo'yicha birinchi yuztalik (top-100) xalqaro (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytinglarga kirgan oliy ta'lim muassasalarining onlayn ta'lim platformalariga kiritilgan yoki sayyor shaklda o'tkazilgan har bir ma'ruza uchun lavozim maoshiga nisbatan 15 foizgacha belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiy qo'shimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 30 foizdan oshmasligi lozim;

g1) davlat ilmiy dasturlari loyihalarini ko'rib chiqadigan ilmiy-texnik kengashlarda har bir a'zolik (ishtirok etganlik) uchun lavozim maoshiga nisbatan 15 foizgacha belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiy qo'shimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 30 foizdan oshmasligi lozim.

ye) ilmiy darajalar beruvchi xorijiy ilmiy, ekspertlik, ilmiy-texnik kengashlarda a'zolik (ishtirok etish) uchun lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiy qo'shimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 30 foizdan oshmasligi lozim;

z) Scopus, Web of Science indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalariga kirgan jurnallarda e'lon qilingan maqola (monografiya) uchun har bir muallifga lavozim maoshiga nisbatan quyidagicha belgilanadi. Bunda:

1. Birinchi kvartilga (Q1) kirgan jurnallarda e'lon qilingan maqola uchun har bir muallifga lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha;

2. Ikkinchi kvartilga (Q2) kirgan jurnallarda e'lon qilingan maqola uchun har bir muallifga lavozim maoshiga nisbatan 20 foizgacha;

3. Uchinchi kvartilga (Q3) kirgan jurnallarda e'lon qilingan maqola uchun har bir muallifga lavozim maoshiga nisbatan 15 foizgacha;

4. To'rtinchi kvartilga (Q4) va boshqa umume'tirof etilgan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalaridagi jurnallarda chop etilgan maqolalarning har bir muallifga lavozim maoshiga nisbatan 5 foizgacha;

5. Scopus, Web of Science indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalarda konferensiya materiallarida e'lon qilingan har bir ma'ruza muallifga lavozim maoshiga nisbatan 5 foizgacha;

6. Mahalliy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqola uchun tashkilot (bir nechta muallif bo'lgan taqdirda, teng miqdorda taqsimlangan holda) lavozim maoshiga nisbatan 5 foizgacha;

7. Respublikada chop etilgan yakka mualliflikdagi monografiya va qo'lyozma uchun lavozim maoshiga nisbatan 10 foizgacha;

8. Noyob qo'lyozmalarni ilmiy muomalaga kiritgan nashr muallifiga (bir nechta muallif bo'lgan taqdirda, teng miqdorda taqsimlangan holda) lavozim maoshiga nisbatan 10 foizgacha;

i) o'quv jarayonida amaliy qo'llaniladigan yoki ishlab chiqarishga joriy qilingan intellektual faoliyat natijasi hamda o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan darslik, o'quv qo'llanma, tadqiqotni amaliyotga joriy qilinganligi haqida markaziy davlat organlari va davlat boshqaruv organlarining dalolatnomasi borligi uchun lavozim maoshiga nisbatan 15 foizgacha miqdorida belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiy qo'shimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 15 foizdan oshmasligi lozim.

k) har bir ixtiro va/yoki foydali modelga patent olganlik uchun muallifga (bir nechta muallif bo'lgan taqdirda, xorijiy hammualliflar va ilmiy darajaga ega bo'lmaganlardan tashqari, faqat ilmiy darajalilar o'rtasida teng miqdorda taqsimlangan holda) lavozim maoshiga nisbatan belgilanadi. Bunda:

har bir ixtiroga patent (elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma bundan mustasno) olganlik uchun har bir muallifga lavozim maoshiga nisbatan 20 foizgacha;

har bir foydali modelga patent (elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma bundan mustasno) olganlik uchun har bir muallifga lavozim maoshiga nisbatan 15 foizgacha.

Mazkur talab asosida umumiy qo'shimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 30 foizdan oshmasligi lozim;

- l) ilmiy, ilmiy-ommabop jurnallar tahrir hay'ati a'zoligi uchun: mahalliy jurnallarda lavozim maoshiga nisbatan 15 foizgacha; xorijiy jurnallarda lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha belgilanadi.

Mazkur talab asosida umumiy qo'shimcha haq lavozim maoshiga nisbatan bir oyda 30 foizdan oshmasligi lozim.

10. Lavozim maoshiga bir martalik qo'shimcha haq ma'lum bir davr uchun erishilgan natijalar yig'indisidan kelib chiqqan holda yoki quyidagi zarur shartlar bajarilganda belgilanadi:

- b) dissertatsiyaning o'z vaqtida yoki muddatidan oldin himoya qilinishini ta'minlaganligi uchun:

falsafa doktorlari (PhD) ilmiy rahbarlariga lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha;

fan doktorlari (DSc) ilmiy maslahatchilariga lavozim maoshiga nisbatan 60 foizgacha;

- v) tashkilotning mezbon sifatida ishtirok etadigan nufuzli xalqaro konferensiyaning (simpozium, davra suhbat) tashkil etganligi uchun, xodimning qo'shgan hissasini hisobga olgan holda lavozim maoshiga nisbatan 60 foizgacha;

- g) xorijiy mamlakatlarda tashkil qilingan ilmiy-pedagogik faoliyatga oid xalqaro tadbirlarda (forumlar, konferensiyalar, kongresslar, anjumanlar va boshqalar) taklifga asosan ma'ruza bilan qatnashganligiga har bir ishtiroki uchun lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha;

- d) xorijiy xalqaro ko'rgazmalarda o'zlarining ilmiy yutuqlarini ommalashtirishda rasmiy ishtirok etganligiga har bir ko'rgazma uchun lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha;

- ye) ixtisoslashgan xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiritilgan har bir ilmiy nashr (monografiya, ilmiy referat, informatsion referat, uslubiy ishlanmalar, tavsiyalar, tezislar, shuningdek ilmiy konferensiya materiallari, ilmiy maqolalar, ilmiy ishlar to'plamlari) uchun lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha;

- j) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining murojaatiga asosan ilmiy-amaliy takliflarni tayyorlash uchun qo'shgan hissasini hisobga olgan holda, lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha.

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
“Oliy ta’lim muassasalari talabalariga to’lanadigan stipendiyalar miqdorlarini
belgilash hamda stipendiyalar tayinlash va to’lash tartibini takomillashtirish
chora-tadbirlari to’g’risida”gi 59-son qarori.**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.01.2020 yildagi “Oliy ta’lim muassasalari talabalariga to’lanadigan stipendiyalar miqdorlarini belgilash hamda stipendiyalar tayinlash va to’lash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 59-son qarori bilan “Oliy ta’lim muassasalari talabalariga stipendiyalar tayinlash va to’lash tartibi to’g’risida”gi Nizom tasdiqlangan.

Mazkur nizom:

Umumiy qoidalar;

Davlat granti asosida ta’lim oluvchi talabalarga stipendiya tayinlash va to’lash tartibi;

To'lov-kontrakt asosida ta'lim oluvchi talabalarga stipendiya tayinlash va to'lash tartibi;

Nomli davlat stipendiyalarini tayinlash va to'lash tartibi;

1 va 2-guruh nogironligi bo'lgan talabalarga stipendiya tayinlash va to'lash tartibi;

To'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar sirasiga kiruvchi talabalarga stipendiya tayinlash va to'lash tartibi;

Talabalarni rag'batlantirish jamg'armasini shakllantirish va jamg'arma mablag'lari hisobiga talabalarga moddiy rag'batlantirishlarni tayinlash va to'lash tartibi;

Talabalarga stipendiya tayinlash va to'lashni amalga oshiruvchi stipendiya komissiyalari ishini tashkil etish;

Yakunlovchi qoidalarini o'z ichiga oladi.

Mazkur Nizom davlat oliy ta'lim muassasalarining talabalariga stipendiyalar tayinlash va to'lash tartibini belgilaydi.

Nizomda qo'llanilgan tushunchalar:

Stipendiya - oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning ishlab chiqarishdan ajralgan holda davlat granti hamda stipendiyali to'lov-kontrakt asosida ta'lim olayotgan talabalarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlardan qat'i nazar oyma-oy to'lanadigan pul ta'minoti;

Stipendiyaning bazaviy miqdori - davlat granti hamda stipendiyali to'lov-kontrakt asosida ta'lim olayotgan talabalarga to'lanadigan stipendiyaning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'rnatiladigan eng kam miqdori;

Stipendiya komissiyasi - oliy ta'lim muassasalarida talabalarga stipendiyalar tayinlash uchun har bir o'quv yilida o'quv ishlari bo'yicha prorektor raisligida, fakultetlarning dekanlari (bakalavriat darajasida fakultet dekanati mavjud bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarida - o'quv-uslubiy bo'lim yoki boshqarma boshlig'i), kasaba uyushmasi va O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti, akademik guruhlar, buxgalteriya vakillaridan iborat tarkibda tashkil etiladigan hamda oliy ta'lim muassasasining rektori (filial direktori) yoki uning vazifasini bajaruvchi shaxs tomonidan tasdiqlanadigan komissiya;

O'zlashtirish (reyting nazorati) ko'rsatkichi - oliy ta'lim muassasasida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari (magistratura mutaxassisliklari) o'quv rejalari asosida o'tilgan fanlar (mashg'ulotlar) bo'yicha talabalar bilim va mahoratining sinovi natijalari;

O'zlashtirayotgan talaba - bundan avvalgi o'quv semestri uchun o'zlashtirish (reyting nazorati) ko'rsatkichlari bo'yicha akademik qarzi mavjud bo'lmagan talaba;

Talabalarni rag'batlantirish jamg'armasi - oliy ta'lim muassasalarida o'quv semestri yakuni bo'yicha fanlarni o'zlashtirayotgan, alohida qobiliyat va iqtidor egasi bo'lgan, jamoat ishlarida faol, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni moddiy qo'llab-quvvatlashni tashkil etish jamg'armasi.

Oliy ta'lim muassasalarida davlat granti asosida o'qitishning kunduzgi shaklida ta'lim oluvchi talabalarga stipendiya to'lovlari O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Birinchi kurs talabalariga o'quv yilining 1-semestri yakuni bo'yicha fanlardan o'zlashtirish ko'rsatkichlari (baholari) ma'lum bo'lgunga qadar stipendiyaning bazaviy miqdorida stipendiya tayinlanadi va to'lanadi.

Avvalgi o'quv semestri natijalariga ko'ra stipendiyalar:

a) quyidagi tartibda tayinlanadi va to'lanadi:

barcha fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi faqat "a'lo" baho (reyting ko'rsatkichi - 86 ball va undan yuqori) bo'lgan talabalarga stipendiyaning bazaviy miqdori 20 foizga oshirilgan holda;

fanlardan o'zlashtirish ko'rsatkichlarining 30 foizidan kam qismini "qoniqarli" bahoga (reyting ko'rsatkichi - 71 balldan kam) o'zlashtirayotgan talabalarga - stipendiyaning bazaviy miqdorida;

b) fanlardan o'zlashtirish ko'rsatkichlarining 30 foizi va undan ortiq qismi "qoniqarli" baho (reyting ko'rsatkichi - 71 balldan kam) bo'lgan talabalarga (to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar sirasiga kiruvchi hamda 1 va 2-guruh nogironligi bo'lgan talabalar bundan mustasno) navbatdagi o'quv semestri mobaynida stipendiya tayinlanmaydi.

To'lov-kontrakt asosida ta'lim olayotgan talabalarga o'z xohishlariga ko'ra, kontrakt qiymatini stipendiyali yoki stipendiyasiz shaklda to'lash huquqi beriladi.

Stipendiyali to'lov-kontrakt tarkibiga bazaviy stipendiya miqdorining yillik summasi kiritiladi hamda stipendiya yil mobaynida oyma-oy to'lab boriladi.

Oliy ta'lim muassasalarida stipendiyali to'lov-kontrakt asosida ta'lim olayotgan talabalarga o'quv semestri yakuni bo'yicha fanlardan o'zlashtirish ko'rsatkichlaridan qat'i nazar bazaviy miqdordagi stipendiya tayinlanadi va to'lanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida stipendiyali to'lov-kontrakt asosida ta'lim olayotgan talabalarga stipendiyalar belgilangan tartibda ular tomonidan to'lov-kontrakt summasi to'langanidan keyin beriladi.

1 va 2-guruh nogironligi bo'lgan, jumladan, to'lov-kontrakt asosida ta'lim oluvchi talabalarga stipendiya to'lovlari O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Avvalgi o'quv semestri yakuni bo'yicha fanlardan o'zlashtirish ko'rsatkichlaridan qat'i nazar 1 va 2-guruh nogironligi bo'lgan o'zlashtirayotgan talabalarga stipendiyaning bazaviy miqdoriga nisbatan 50 foiz yuqori (oshirilgan) miqdorlarda stipendiya tayinlanadi va to'lanadi.

To'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar sirasiga kiruvchi, jumladan, to'lov-kontrakt asosida ta'lim oluvchi talabalarga stipendiya to'lovlari O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Avvalgi o'quv semestri yakuni bo'yicha fanlardan o'zlashtirish ko'rsatkichlaridan qat'i nazar to'liq davlat ta'minotida bo'lgan o'zlashtirayotgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar sirasiga kiruvchi talabalarga bazaviy stipendiya miqdorida stipendiya tayinlanadi va to'lanadi.

Stipendiya to'lash uchun stipendiya komissiyasi tavsiya etgan talabalarning ro'yxatlari oliy ta'lim muassasasi rektorining (filial direktorining) yoki uning vazifalarini bajaruvchi shaxsning buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

O'zlashtirayotgan talabalarga stipendiya tayinlash o'quv yilida ikki marotaba o'tkaziladi va stipendiya avvalgi semestr yakuniy nazorat natijalari e'lon qilinganidan so'ng, har bir o'quv semestri oyining birinchi kunidan boshlab tayinlanadi.

Stipendiyali to'lov-kontrakt miqdori bitiruvchi kurs talabalari tomonidan iyul va avgust oylari uchun bazaviy stipendiya summasi (qismlarga bo'lib to'langanda - oxirgi o'quv semestridagi) to'lov-kontrakt miqdoridan chegirilgan holda to'lanadi.

Talabalarining stipendiyalaridan ushlab qolinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Talabalarga stipendiya to'lovlarini to'g'ri tayinlash va to'lash ustidan nazorat qilish oliy ta'lim muassasasining stipendiya komissiyasiga yuklanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Magistratura to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori.

"Magistratura to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 02.03.2015 yildagi Vazirlar Maxkamasining 36-son Qarori bilan magistratura to'g'risidagi Nizom tasdiqlangan.

Mazkur Nizom:

- I. Umumiy qoidalar
- II. Magistrlar tayyorlashga qo'yiladigan talablar
- III. Magistratura talabalarining huquq va majburiyatlari
- IV. Magistraturada ta'lim jarayonini tashkil etish
- V. Magistraturada pedagogik faoliyatga jalb etiladigan o'qituvchilarga qo'yiladigan umumiy malaka talablari
- VI. Mavzuni tanlash va ilmiy rahbarni tayinlash
- VII. Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi va uning mazmuniga qo'yiladigan talablar
- VIII. Dastlabki va rasmiy himoyani o'tkazish tartibi
- IX. Magistratura talabalari faoliyati monitoringi
- X. Yakunlovchi qoidalaridan iborat.

Nizomni 1-ilovasida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida magistrlar tayyorlashni tashkil etish sxemasi,

2-ilovasida Magistratura talabasining kalendar ish rejasi namunasi berilgan.

Mazkur nizom magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish, kadrlar tayyorlash sifati va ularning raqobatbardoshligini kuchaytirish maqsadida ishlab chiqilgan hamda oliy ta'lim muassasalarida magistrlar tayyorlashning asosiy qoidalari va tartibini, umumqabul qilingan xalqaro standartlarga binoan magistrlik dissertatsiyasi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan mezonlar va talablarni belgilaydi.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida o'qitish kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

Magistratura dasturi yakunlanishi "magistr" darajasini beruvchi yakuniy davlat attestatsiyasi hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida magistrnlarni tayyorlashni muvofiqlashtirishni magistratura bo'limlari amalga oshiradi, ular kafedralar va dekanatlar bilan birgalikda quyidagilarni:

magistrlar tayyorlash bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga, ularga taqdim etilayotgan ta'lim va o'qitish sifatini nazorat qilishga ko'maklashishni;

o'quv-izlanish va ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilishini;

oliy ta'lim muassasalari barcha bo'linmalarining magistrlar tayyorlash bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilishni;

magistrlarni o'qitish va ularning kelgusida ishga joylashishi ustidan muntazam monitoringni amalga oshirishni, magistrlar tayyorlash masalalarini tahlil qilish va ular yuzasidan muntazam ravishda hisobotlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim olish to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan magistratura mutaxassisliklari malaka talablari bilan belgilanadi.

Magistr:

tanlangan mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va kasbiy faoliyatni mustaqil yuritishga;

kasbiy faoliyatda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga;

oliy ta'lim muassasasidan keyingi ta'limni magistrlik tayyorgarligiga muvofiq mutaxassislik bo'yicha katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutida davom ettirishga;

kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olishga tayyorlanadi.

Magistr o'z mutaxassisligi, ilmiy va ilmiy-pedagogik tayyorgarligiga muvofiq kasbiy faoliyatining quyidagi turlari:

ilmiy-pedagogik;

ilmiy-ijodiy;

ilmiy-tadqiqot va tajriba;

loyiha-konstruktorlik;

loyiha-texnologik;

ishlab chiqarishda boshqaruv, shuningdek bakalavriat ta'lim yo'nalishiga muvofiq boshqa faoliyat turlari bo'yicha ham shug'ullanishi mumkin.

Magistratura talabalari:

ta'lim, fan, madaniyat, texnika, iqtisodiyotni, ijtimoiy va boshqa sohalarni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalariga muvofiq bilimlarni olish;

oliy ta'lim muassasasi faoliyati bilan bog'liq muhim masalalarni ko'rib chiqish va hal qilishda bevosita ishtirok etish;

oliy ta'lim muassasasi axborot-resurs markazlari xizmatlaridan, shu jumladan, o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlardan, shuningdek oliy ta'lim muassasasining ustavida belgilangan tartibda boshqa turdagi xizmatlardan bepul foydalanish;

ilmiy-tadqiqot ishlarida, konferensiyalar va simpoziumlarda ishtirok etish;

o'z ilmiy-tadqiqot ishlarini ilmiy nashrlarda chop etishga taqdim etish;

oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashi tavsiyasiga muvofiq yetakchi xorijiy va respublika ta'lim (ilmiy) muassasalarida amaliyot o'tash, stajirovkada bo'lish

yoki magistrlik dissertatsiyasining tajriba-sinov qismlarini bajarish uchun ushbu muassasalar bilan tegishli kelishuvlar mavjud bo'lganda ularga yo'llanma olish;

oliy ta'lim muassasasi rahbariyatining qarorlaridan norozi bo'lgan taqdirda, tegishli idoralarga belgilangan tartibda shikoyat qilish;

talabalar uchun qonunchilikda belgilangan tartib va miqdorlardagi stipendiya, Davlat stipendiyasi hamda o'qishga yo'llagan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tayinlanadigan stipendiyalarni olish huquqiga ega.

Magistratura talabasi qonun hujjatlarida yoki oliy ta'lim muassasasi ustavida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

Magistratura talabalarining majburiyatlari:

magistraturaning tegishli mutaxassisligi bo'yicha o'quv rejalari va dasturlarida nazarda tutilgan bilimlarni egallash va o'zlashtirish;

o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha turdagi topshiriqlarni belgilangan muddatlarda bajarish, shuningdek magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash;

oliy ta'lim muassasasining ustavi talablariga va ichki tartib qoidalariga rioya etish.

Magistratura talabasiga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

Magistraturada ta'lim jarayonini tashkil etishga quyidagi talablar qo'yiladi:

oliy ta'lim muassasasining magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ilmiy-pedagogik kadrlar bilan, shu jumladan, kadrlar tayyorlash ixtisosligi va yo'nalishiga mos keluvchi professorlar, dotsentlar bilan ta'minlanganligi;

nazariy, laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, shu jumladan, magistrlik dissertatsiyalariga qo'yiladigan talablarga mos holda ularni tayyorlash uchun zarur o'quv-metodik va moddiy-texnika bazaning mavjudligi;

o'quv rejalari va dasturlariga muvofiq tashkilotlarda magistratura talabalarining amaliyotlari, stajirovkasi va magistrlik dissertatsiyalarining tajriba-sinov qismlarini bajarishi uchun bu tashkilotlar bilan oliy ta'lim muassasasi (fakultet, kafedralar) o'rtasida tuzilgan shartnomalar va kelishuvlarning mavjudligi;

magistratura talabalarini tayyorlash jarayoniga O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi ilmiy muassasalari, tarmoq ilmiy-izlanuvchilik va loyiha muassasalarining yetakchi olimlari, shuningdek xorijiy olimlar, yuqori malakali, tajribali mutaxassislarning soatbay asosida jalb etilganligi.

Magistratura talabasining kalendar ish rejasi mazmuni ilmiy rahbar bilan birgalikda ishlab chiqiladi va oliy ta'lim muassasasining o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlanadi. Magistratura talabasi o'zining kalendar ish rejasi bajarilishi bo'yicha har oyda kafedra yig'ilishida hisobot beradi.

Har o'quv semestri yakunida tegishli fakultet o'quv-metodik kengashi yig'ilishida kafedra mudiri magistratura talabasining kalendar ish rejasi bajarilishi yuzasidan hisobot beradi.

Magistraturada pedagogik faoliyatga jalb etiladigan o'qituvchi ta'lim jarayoni doirasida:

hamma turdagi o'quv mashg'ulotlarini yuqori darajada o'tadi;

o'quv, ilmiy va o'quv-metodik ishlarni rejalashtiradi, tashkil etadi va nazorat qiladi;

ilmiy-tadqiqot ishlariga va magistratura talabalarining magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlash jarayoniga rahbarlik qiladi;

kafedra ixtisosligi bo'yicha ilmiy, ilmiy-tadqiqot seminarlarini tashkil etadi va ularda ishtirok etadi;

talabalar ilmiy seminarlarini boshqaradi;

kafedra pedagoglari tomonidan barcha turdagi o'quv mashg'ulotlari sifatli o'tkazilishi ustidan nazorat qiladi;

magistraturaning tegishli mutaxassisligi bo'yicha namunaviy va ishchi o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqadi;

kafedra ilmiy tadqiqotlari yo'nalishlari doirasida tashkil etiladigan yig'ilishlar va konferensiyalarda, shu jumladan, xalqaro konferensiyalarda ishtirok etadi;

magistratura talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etadi va rejalashtiradi;

magistratura talabalari uchun darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish va nashrga tayyorlashda ishtirok etadi;

magistratura talabasining kalendar ish rejasi bajarilishini nazorat qiladi.

Magistraturada pedagogik faoliyatga jalb etiladigan o'qituvchilarga quyidagi malaka talablari qo'yiladi:

fanni yuqori darajada bilish hamda uning nazariy asoslarini va muhim yutuqlarga erishish mumkin bo'lgan yo'llarni ko'ra bilish uquviga ega bo'lish;

ilmiy muammolarni ishlab chiqa olish, tadqiqotlar o'tkaza olish va ularning natijalari bo'yicha chop etilgan ilmiy ishlarga ega bo'lish;

magistratura talabalarining individual xususiyatlari, shaxsiy sifatleri va dissertatsiyalari maqsadlarini hisobga olgan holda pedagogik faoliyat yo'nalishlarini belgilash qobiliyatiga ega bo'lish;

magistratura talabalarining bilim va malakalarni egallab olishiga imkoniyat beradigan innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashga tayyor bo'lish;

pedagogik holatlar tahlili asosida pedagogik vazifalarni shakllantirish va ularni hal etishning maqbul yechimlarini topish uquvi;

magistratura talabalarining kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion kurslar ishlab chiqish bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'lish;

ma'lumotlarni tizimlashtirish va izlash orqali o'z bilimini takomillashtirish uchun doimiy o'rganish, ma'lumotlarni elektron qayta ishlashda axborot-kommunikatsiya va multimediya texnologiyalaridan foydalanish mahoratiga ega bo'lish.

Magistraturada pedagogik faoliyat yuritishga ilmiy unvon (ilmiy daraja)ga va kamida 3 yillik uzluksiz ilmiy-pedagogik (ilmiy) ish stajiga ega bo'lgan, shuningdek xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (PhD) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajali shaxslar jalb qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020 yildagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son Qarori.

Mazkur qaror bilan «Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlandi.

Ushbu Nizom oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga Kredit to‘plash va ko‘chirishning Yevropa tizimi (European Credit Transfer and Accumulation System - ECTS) asosida ta’limning kredit-modul tizimini joriy etish tartibini belgilaydi.

Nizomda quyidagi:

- 1-bob. Umumiy qoidalar
- 2-bob. Asosiy tushunchalar
- 3-bob. Ta’lim dasturi tuzilmasi
- 4-bob. O‘quv jarayonini rejalashtirish, monitoring olib borish va ta’lim sifatini ta’minlash
- 5-bob. Akademik mobillik va kreditlarni tan olish
- 6-bob. Baholash, baholarni konvertatsiya qilish
- 7-bob. Kredit-modul tizimida ro‘yxatga olish xizmatini tashkil etish
- 8-bob. Talabalarni o‘qishdan chetlashtirish, qayta tiklash, kursdan kursga o‘tkazish mexanizmlari

9-bob. Yakunlovchi qoidalar o‘z mujassasmini topgan.

Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

GPA (Grade Point Average) - ta’lim oluvchining dastur bo‘yicha o‘zlashtirgan ballari o‘rtacha qiymati bo‘lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$GPA = \frac{K1 * U1 + K2 * U2 + K3 * U3 \dots + Kn * Un}{K1 + K2 + K3 \dots + Kn}, \text{ bunda:}$$

K - har bir fan/modulga ajratilgan kreditlar miqdori;

U -har bir fan/modul bo‘yicha talaba to‘plagan baho;

akademik mobillik - oliy ta’lim muassasasi talabalarining muayyan vaqt mobaynida respublika hududidagi yoki chet eldagi boshqa bir oliy ta’lim muassasasiga o‘qish maqsadida borishi;

mobillik dasturi - ikki yoki undan ortiq oliy ta’lim muassasasi o‘rtasida o‘zaro ta’lim to‘g‘risidagi kelishuv asosida tashkil etilgan akademik mobillik dasturi;

kredit - ta’lim olish natijalariga ko‘ra talaba tomonidan muayyan fan bo‘yicha o‘zlashtirilgan o‘quv yuklamasining o‘lchov birligi. Kreditlar qoidaga muvofiq butun, kasr sonlarda ifodalanishi mumkin;

oliy ta’lim muassasasi - belgilangan miqdordagi kreditlarni tan olishni hisobga olgan holda ta’lim va malaka to‘g‘risidagi hujjat beruvchi muassasa;

kreditlarni berish - malaka yoki uning alohida qismlariga qo‘yilgan talablarga muvofiq erishilgan ta’lim olish natijalariga ko‘ra talaba yoki boshqa ta’lim oluvchilarga kreditlarni rasmiy taqdim etish jarayoni;

kreditlarni ko'chirish - talabalarning akademik mobilligini ta'minlash maqsadida bir oliy ta'lim muassasasi ta'lim dasturi bo'yicha olingan kreditlarni boshqa oliy ta'lim muassasasiga ko'chirish va tan olish;

kredit to'plash - ta'lim elementlarini o'zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to'plash;

talabani shaxsiy ta'lim trayektoriyasi - talaba tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to'plash va xohlagan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lish imkoniyatini beradigan yo'nalish (marshrut). Ta'lim trayektoriyasi institutsional hujjatlar va yo'riqnomalar yordamida tuzilishi hamda turli ta'lim trayektoriyalari natijada bir xil malaka olishga olib kelishi mumkin;

ta'lim dasturi - bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv jarayonini amalga oshirishga mo'ljallangan ta'limning asosiy xususiyatlari (hajmi, mazmuni, rejalashtirilgan natijalar), tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, fan dasturlariga quyilgan umumiy talablar, shuningdek, ta'limni tashkil etish va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot-resurs va o'quv-metodik ko'rsatkichlar majmui;

ta'lim dasturi katalogi - oliy ta'lim muassasasi tavsifi, kredit-modul tizimiga kirish, mavjud bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari, xizmatlar va resurslar, o'quv fanlari dasturlari, aniq ta'lim dasturlari elementlari tavsifi to'g'risidagi axborot;

ta'lim natijalari - talaba tomonidan o'zlashtirilgan va baho bilan tasdiqlangan malaka darajasini aks ettiradigan, ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tugallagach talaba o'zlashtirgan ko'nikmalar va ularni amalda bajarish qobiliyatining tavsifi;

o'qish yuklamasi - talaba tomonidan o'quv faoliyatining barcha turlari - ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs loyihaci (ishi), amaliyot va mustaqil ishni amalga oshirish asosida kutilgan o'quv natijalariga erishish uchun zarur bo'lgan soatlar hajmi;

ro'yxatga olish xizmati - ta'lim jarayonini boshqarish axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlardan foydalanib professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalar bo'yicha ta'lim jarayoniga oid ma'lumotlar bazasini shakllantirishni, shuningdek, talabalarning barcha o'quv natijalarini ro'yxatga olish, bilimni nazorat qilish hamda ularning akademik reytingini hisoblashning barcha turlarini tashkil etishni nazarda tutuvchi xizmatlar;

ta'lim elementlari - ta'lim dasturining bir qismi bo'lib, ta'lim olish natijalariga erishish va ta'lim dasturida ko'rsatilgan bilimlarni o'zlashtirishga ko'maklashuvchi o'qitish turi;

transkript - ta'lim olishning tegishli davrida o'zlashtirilgan kreditlar va baholarning harf va raqamlardagi ifodasi ko'rsatib o'tilgan fanlar ro'yxatini o'z ichiga olgan belgilangan shakldagi hujjat.

O'quv yili uchun ta'lim dasturi tuzilmasi bir yoki bir nechta modullardan iborat ta'lim elementlaridan tashkil topgan bo'lib, oliy ta'lim muassasasi kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Ta'lim dasturi auditoriya mashg'ulotlari, ilmiy loyihalar, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish amaliyoti va boshqa ta'lim elementlaridan iborat bo'lishi mumkin.

Ta'lim dasturi tuzilmasi uning har bir ta'lim elementiga mos keladigan ta'lim olish natijalari (kamida 6 ta ko'rsatkich)ni ko'rsatgan holda bir akademik o'quv

yiliga 60 kredit mos kelishini hisobga olib ishlab chiqiladi. Ta'lim dasturida kreditlarning miqdori o'quv yuklamasi asosida ko'rsatiladi.

Talabalarning ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi hamda talab qilingan malakaga ega bo'lishi uchun talablar aniq belgilanadi. O'zlashtirish qoidalari tanlangan ta'lim dasturi bo'yicha o'qitishning turli bosqichlari uchun belgilangan kreditlar miqdorida yoki kreditlar oralig'ida ifodalanishi mumkin.

Ta'lim dasturining talabalar tomonidan muvaffaqiyatli bajarilishiga yordam berish uchun oliy ta'lim muassasasining tegishli bo'linmalari va xodimlari, shu jumladan, ta'limning kredit tizimini boshqarishga mas'ul boshqarma yoki bo'limi, guruh murabbiyi tomonidan maslahat va tushuntirishlar berib boriladi. Maslahat doirasida talabalarga ta'lim olish natijasida erishgan yutuqlar va tajribani tan olish imkoniyatlari tushuntiriladi.

Oliy ta'lim muassasasi ta'lim dasturi katalogi va o'qitish sharoitlari to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar hamda dolzarb axborotni oliy ta'lim muassasasi veb-sahifasiga qulay yuklanadigan formatda o'quv yili boshlanishidan kamida bir oy oldin joylashtirishi va e'lon qilib borishi shart.

Ta'lim dasturi va uning elementlarini amalga oshirishga mas'ul o'qituvchilar ta'lim dasturida ko'rsatilgan o'qitish natijalari bilan dars berish va baholash jarayoni o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashlari lozim. O'qitish natijalari, dars berish va baholash jarayoni o'rtasidagi ushbu konstruktiv bog'liqlik ta'lim dasturlariga qo'yiladigan muhim talab hisoblanadi.

Ta'lim elementlarining amalga oshirilishiga mas'ul professor-o'qituvchilar ta'lim dasturida ko'rsatilgan natijalar bilan ta'lim berish hamda baholash jarayonlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.10.2008 yildagi "O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida"gi 226-son Qarori.

Qobiliyatli yoshlarni rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish, ularni faol yaratuvchilik faoliyatiga keng jalb etish, iqtidorli o'quvchilarni, talabalar va tayanch doktorantlarni qo'llab-quvvatlash hamda munosib taqdirlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida"gi 226-son Qarori qabul qilidi.

Mazkur qaror bilan:

Tayanch doktoranturada tahsil olayotgan doktorantlar uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari va ularni tayinlash tartibi to'g'risidagi nizom;

Magistratura bosqichi talabalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari va ularni tayinlash tartibi to'g'risidagi nizom;

Bakalavriat bosqichi talabalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari hamda ularni tayinlash tartibi to'g'risidagi nizom;

Respublika olimpiadalari, tanlovlari va sport musobaqalarini o'tkazish to'g'risidagi nizom;

Xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlari, musobaqalari g'oliblari bo'lgan akademik litseylar, professional ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari o'quvchilarini taqdirlash tartibi to'g'risidagi nizomlar tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari davlat oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlarining so'nggi o'quv yilida tayanch doktoranturada tahsil olayotgan doktorantlarga ya'ni, O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan o'tkaziladigan tanlov asosida tanlab olish natijalariga ko'ra tayinlanadi.

Magistratura bosqichi talabalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lgan davlat oliy ta'lim muassasalari talabalariga Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan o'tkaziladigan tanlov natijalariga binoan tayinlanadi.

Oliy ta'lim muassasalari bakalavriat bosqichi talabalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari O'zbekiston Respublikasidagi davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan, qo'shma ta'lim dasturlarida butun o'qishi davomida faqat a'lo baholarga o'qiyotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan oxirgi kurs talabalariga tayinlanadi va to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyalari har bir oliy ta'lim muassasasining bakalavriat bosqichidagi bir nafar bitiruvchi kurs talabasiga tayinlanadi va to'lanadi.

Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug'bek, Imom al-Buxoriy va Islom Karimov nomli davlat stipendiyalari O'zbekiston Respublikasidagi davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan, qo'shma ta'lim dasturlarining oxirgi ikki kursida o'qiyotgan talabalarga tayinlanadi va to'lanadi.

Bobur nomli davlat stipendiyasi tarix va geografiya yo'nalishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasidagi davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan, qo'shma ta'lim dasturlarining oxirgi ikki kursida o'qiyotgan talabalarga tayinlanadi va to'lanadi. Bunda ushbu nomli davlat stipendiyasi soni tarix va geografiya yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari uchun alohida bittadan belgilanadi.

Pahlavon Mahmud nomli davlat stipendiyasi jismoniy madaniyat va sport yo'nalishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasidagi davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan, qo'shma ta'lim dasturlarining oxirgi ikki kursida o'qiyotgan talabalarga tayinlanadi va to'lanadi. Bunda ushbu nomli davlat stipendiyasi soni jismoniy madaniyat va sport yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari uchun alohida bittadan belgilanadi.

To'lepbergen Qaipbergenov va Ibroyim Yusupov nomli davlat stipendiyalari Qoraqalpog'iston Respublikasidagi davlat, nodavlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan, qo'shma ta'lim dasturlarining oxirgi ikki kursida o'qiyotgan talabalarga tayinlanadi va to'lanadi. Bunda ushbu nomli davlat stipendiyalari soni Qoraqalpog'iston Respublikasidagi har bir oliy ta'lim muassasasi uchun To'lepbergen Qaipbergenov va Ibroyim Yusupov nomli davlat stipendiyalari bo'yicha alohida bittadan belgilanadi.

Mustaqil tayyorlanish uchun masalalar:

1-masala

Sizga qo'yidagi masalalarga oydinlik kiritish uchun vazifa berildi.

- 1) Agar talaba shartnoma pulini to'lashga qiynalsa, Oliy ta'lim muassasasi tomonidan imtiyoz berish nazarda tutiladimi?
- 2) Talabalarni turar joylarga joylashtirish qay tarzda amalga oshiriladi?
- 3) Taklif (tashabbus) asosida bajariladigan doktorlik dissertatsiyasi mavzui bo'yicha oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi kengashi qarori va muvofiqlashtiruvchi kengash hulosasi bir-biridan jiddiy farq qilsa, u holda qanday harakat qilinadi?
- 4) Oliy ta'lim muassasasi bakalavriati yoki magistraturasini davlat grantlari asosida tamomlagan bakalavr yoki magistrning yo'llanma asosida ishlab berish muddati necha yilni tashkil qiladi?

Yuqorida berilgan masalalarni hal qilishingiz va huquqiy manbalarga asoslangan holda o'z fikringizni bayon etishingiz lozim.

IV. SEMINAR-TRENING MASHG'ULOTI MATERIALLARI

IV.SEMINAR-TRENING MASHG'ULOTI MATERIALLARI

1-MAVZU: MALAKA TALABLARI, O'QUV REJALAR, FAN DASTURLARI VA ULARGA QO'YILADIGAN TALABLARNI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI. (2 soat).

Reja:

Seminar-trening mashg'ulotining maqsadi: Ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlarini ishlab chiqish. Xorijiy tajribalar asosida Malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlarini takomillashtirish bo'yicha bilim va malakalarga ega bo'lish.

Ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari.

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining «Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar» O'zbekiston Respublikasining davlat standartini tasdiqlash to'g'risida 2021 yil 19 oktabrdagi 35-2021-son buyrug'i. (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021 yil 27 oktabrda hisobga olingan, hisob raqami 43) (O'z DSt 3556:2021)

malaka talablari — oliy ta'lim tegishli bosqichi bitiruvchisining bilim, ko'nikma va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining «Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar» O'zbekiston Respublikasining davlat standartini tasdiqlash to'g'risida 2021 yil 19 oktabrdagi 35-2021-son buyrug'i bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasining davlat standarti Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar” ning

Bitiruvchilarning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarining asosiy qoidalari bandiga muvofiq Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan talablar bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablarida bayon etiladi.

«Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi» (TXSK 2011)ga muvofiq O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida bakalavriat 6-malaka darajasiga, magistratura 7-malaka darajasiga mansubdir.

Bakalavrning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil samarali mehnat faoliyatini yuritishini ta'minlashi hamda tegishli mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirish imkonini berishi lozim.

Magistrning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari mutaxassislik bo'yicha magistr akademik darajali shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va kasbga doir boshqaruv faoliyati bilan samarali shug'ullanishini ta'minlashi, tegishli mutaxassislik bo'yicha

oliy ta'limdan keyingi ta'limda (tayanch doktorantura, mustaqil izlanuvchi) tahsil olish imkonini berishi lozim.

Bakalavr va magistrnlarni tayyorlash oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturi asosida kunduzgi, kechki (smenali), sirtqi (maxsus sirtqi) va zarur hollarda masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Ta'lim jarayoni kredit-modul tizimi asosida amalga oshiriladi. Ayrim (zarur) hollarda ta'lim jarayoni reyting (baholash) tizimi asosida amalga oshirilishi mumkin. (5.2.)

O'quv dasturlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan bakalavriat ta'lim oluvchilariga «bakalavr» akademik darajasi, magistrlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan magistratura ta'lim oluvchilariga «magistr» akademik darajasi hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjatlar beriladi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlar («Double degree») asosida ham amalga oshiriladi. Bunda ta'lim jarayoni davlat ta'lim standartlariga tayangan holda mahalliy yoki mahalliy va xorijiy oliy ta'lim muassasalari o'rtasida tuzilgan kelishuv (shartnoma)da belgilangan talablar asosida tuziladigan hamda belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv reja va o'quv dasturlariga muvofiq amalga oshiriladi.

5.3. bandda Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarining ta'limni davom ettirish imkoniyatlari berilgan. Jumladan:

bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining bitiruvchilari magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'qishni davom ettirish huquqiga ega. Muayyan bakalavriat yo'nalishlari uchun o'qishni davom ettirish bo'yicha magistratura mutaxassisliklarining ro'yxatini oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi belgilaydi;

magistratura mutaxassisliklarining bitiruvchilari tayanch doktorantura, doktorantura yoki mustaqil izlanuvchilik institutlarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini belgilangan tartibda amalga oshirishi mumkin.

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha malaka talablarini ishlab chiqish va tatbiq etish tartibi

Malaka talablarining asosiy maqsadi va vazifasi milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi korxona, tashkilot va muassasalarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, oliy ta'lim bakalavriat va magistratura bitiruvchilarining bilim, uquv, ko'nikma va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarni belgilash hisoblanadi.

Malaka talablari bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining har biri bo'yicha mazkur davlat standarti, «Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori», milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi korxona, tashkilot va muassasalarning talab va ehtiyojlariga muvofiq ishlab chiqiladi.

Malaka talablari quyidagi bo'limlardan iborat bo'ladi:

zarvaraqda (titul varag'i) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining nomi, o'rta qismida ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassislik nomi ko'rsatiladi;

zarvaraq sirtida malaka talablari kim tomonidan ishlab chiqilgani va kiritilganligi, tasdiqlangani va joriy etilgani hamda hujjat maqomi ko'rsatiladi.

Mundarijada malaka talablarining asosiy boblari ko'rsatiladi.

Ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligining umumiy tavsifi bobida malaka talabining qo'llanish sohasi, asosiy foydalanuvchilari, kasbiy faoliyatlarining tavsifi, bakalavr yoki magistr kasbiy faoliyatining sohalari, obyektlari, turlari hamda kasbiy vazifalari keltiriladi;

Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavrning yoki mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar bobida bakalavriat yoki magistratura bitiruvchisi ega bo'lishi zarur bo'lgan umumiy kompetensiyalar hamda kasbiy kompetensiyalar aniq ko'rsatiladi.

Bibliografik ma'lumotlar belgilangan tartibda keltiriladi.

Kelishuv varag'ida malaka talabini ishlab chiqqan tayanch oliy ta'lim muassasasi rektori imzosi hamda uni kelishuv jarayonidan o'tkazgan oliy ta'lim muassasalari va tashkilotlar rahbarlarining imzolari qo'yiladi.

O'quv rejalar. Oliy ta'limning muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi, soatlar va kreditlardagi hajmini ta'lim davrining to'liq muddati uchun belgilaydigan hujjat.

O'quv rejalarini ishlab chiqish va tatbiq etish tartibi.

O'quv rejalarining asosiy maqsadi va vazifasi:

o'quv rejasining asosiy maqsadi — davlat ta'lim standartlari va malaka talablarida bakalavr va magistrning malakalariga qo'yilgan talablarga muvofiq yetuk va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga oid o'quv fanlar, ularning hajmi, mashg'ulotlar turlari, o'quv jarayonining mazmuni, tarkibi, muddatlari va o'qitishning mantiqiy ketma-ketligini belgilash hamda tartibga solish;

o'quv rejasining asosiy vazifasi — muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim jarayoni davomida o'quv fanlarini semestrlar va o'quv yillar tarkibida ta'lim oluvchilar tomonidan samarali o'zlashtirilishini ta'minlovchi mantiqiy ketma-ketlikda maqbul holatga keltirish, o'quv faoliyati davri, turlari, soatlar hajmi, kreditlar hamda yakuniy nazorat muddatlarini belgilash.

O'quv rejalarini ishlab chiqish, tasdiqlash va ta'lim jarayoniga joriy etish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

o'quv rejalar bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining har biri bo'yicha «Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Oliy

ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori», bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablariga muvofiq ishlab chiqiladi;

o'quv rejalar ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarga oid majburiy va tanlov fanlari belgilangan holda, ularning mazmun va mohiyatidan kelib chiqib, auditoriya (ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya va boshqa mashg'ulotlar) va mustaqil mashg'ulotlar, o'quv va ishlab chiqarish (klinik, ijodiy va boshqa) amaliyotlari, kurs loyihasi, kurs ishi, ijodiy va boshqa o'quv vazifalari shaklida mantiqiy ketma-ketlikda, fanlarga ajratilgan kreditlarga amal qilgan tartibda shakllantiriladi;

o'quv rejalariga davomiyligi kamida 15 o'quv haftasiga teng semestrlar, har bir semestrda so'ng 2 — 4 haftalik attestatsiya sessiyalari, tegishli davomiylikdagi malaka amaliyotlari, ta'tillar va boshqa akademik jarayonlar kiritiladi;

o'quv rejalar:

reyting (baholash) tizimi uchun jadval shaklida A-4 formatli standart varaqlarining «kitob ko'rinishida ikki tarafga «Times New Roman» shriftining maqbul o'lchamida bostirib chiqariladi;

kredit-modul tizimi uchun jadval shaklida A-4 formatli standart varaqlarining «albom ko'rinishida bir tarafga «Times New Roman» shriftining maqbul o'lchamida bostirib chiqariladi va birlashtirib tikiladi;

zarur hollarda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan tartibda o'quv rejalar boshqa shaklda ishlab chiqilishiga yo'l qo'yiladi;

o'quv rejalar oliy ta'lim muassasalari tomonidan tayyorlanadi va tasdiqlanadi;

tasdiqlangan o'quv rejalar belgilangan tartibda ikki nusxada rasmiylashtiriladi, ularning birinchi nusxasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazida, ikkinchi nusxasi tegishli oliy ta'lim muassasasida saqlanadi;

zarur hollarda oliy ta'lim muassasalari tomonidan uquv rejalariga qushimcha ravishda fakultativ, maxsus kurs va boshqa turdagi mashg'ulotlar kiritilishi mumkin;

ishlab chiqilgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv rejalar ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) ta'lim shaklining tayanch o'quv rejalarini hisoblanadi. Bular asosida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (kechki (smenali), sirtqi (maxsus sirtqi), masofaviy) ta'lim shakllari uchun belgilangan tartibda ishchi o'quv rejalar ishlab chiqiladi va tegishli oliy ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

Oliy ta'lim muassasalari tomonidan ixtiyoriy tarzda ishchi o'quv rejalar quyidagi hollarda ham ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi mumkin:

muayyan ta'lim yo'nalishlar tegishli turlari bo'yicha ajratilishi nazarda tutilganida (masalan, sport turlari);

o'quv rejalarda tanlov fanlarini dolzarbligiga qarab belgilash ehtiyoji mavjudligida.

Ishchi o'quv rejalar belgilangan tartibda ikki nusxada rasmiylashtiriladi, ularning birinchi nusxasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazida, ikkinchi nusxasi tegishli oliy ta'lim muassasasida saqlanadi.

O'quv dasturlari.

o'quv fani — ta'lim jarayonida muayyan ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklar bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan tegishli ilmiy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy sohalaridan saralab olingan bilim va ko'nikmalar tizimi.

o'quv dasturi — ta'lim mazmunini belgilovchi o'quv fanining asosiy mavzulari, mazmuni, o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan hujjat

O'quv dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq etish tartibi.

O'quv dasturlarining asosiy maqsadi va vazifasi:

O'quv dasturining asosiy maqsadi — davlat ta'lim standartlari va malaka talablarida bakalavr va magistrning bilimi, uquvi, ko'nikma va kompetensiyalariga qo'yilgan talablarga muvofiq o'quv rejaga kiritilgan muayyan fan tomonidan raqobatbardosh mutaxassislarni sifatli tayyorlash uchun shakllantirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmuini belgilash, fan mazmuni va tarkibiy qismlarini tartibga solishdir;

O'quv dasturining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

o'quv faniga oid ilm-fan, texnika, texnologiyalarning so'nggi yutuqlarini, ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda o'quv mashg'ulotlar mavzularini shakllantirish, ta'lim shakli va o'quv fanga ajratilgan vaqtga muvofiq o'quv materiallarni mavzular va o'quv mashg'ulotlar turlari bo'yicha taqsimlash, maqbul holatga keltirish va optimallashtirish, ularning mantiqiy ketma-ketligini hamda boshqa fanlar bilan integratsiyasini ta'minlash;

uzluksiz ta'lim tizimining ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylik va uzluksizligini, shuningdek, fanning mazmun va mavzulari boshqa ta'lim turlaridagi hamda turdosh yo'nalishlardagi fanlarning mazmun va mavzulari bilan takrorlanmasligini ta'minlash;

fanni o'zlashtirish, ta'lim oluvchilarda fanga oid kompetensiyalarni, kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun zarur o'quv-uslubiy shartlar, o'quv adabiyotlar, didaktik materiallarni hamda baholash vositalari va usullari yordamida ta'lim oluvchilar bilimini nazorat qilish shakllarini belgilash.

O'quv dasturda o'quv materiallar ma'ruza, seminar, kollokvium, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv va ishlab chiqarish (klinik, ijodiy va boshqa) amaliyotlari shaklida mantiqiy ketma-ketlikda belgilanadi, shuningdek, o'quv fanining maqsadi va vazifasiga muvofiq kurs loyihasi, kurs ishi, mustaqil ish, chizma-hisob, ijodiy, laboratoriya va boshqa ishlar ajratilgan vaqt meyorlariga muvofiq o'quv dasturga kiritiladi.

O'quv dasturi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi lozim:

muqovada oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi nomi, oliy ta'lim muassasasi nomi, «Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori»ga muvofiq tegishli bilim, ta'lim sohalari va ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik)larining kodi va nomlari, harakatdagi o'quv rejasiga muvofiq fanning to'liq nomi, tasdiqlangan sanalari va belgilari ko'rsatiladi;

O'quv dasturining birinchi betida uning asosiy parametrlari (fan kodi, qaysi o'quv yilidan joriy etilganligi, semestr, fanga ajratilgan kreditlar (soatlar), fan turi (majburiy, tanlov), ta'lim tili, haftadagi dars soatlari, fanning nomi, auditoriya va mustaqil mashg'ulotlar hajmi, jami yuklama jadval shaklida belgilanadi;

«Fanning mazmuni» o'quv fanining maqsadi va uning asosiy vazifalari tegishli yo'nalish bo'yicha mutaxassis tayyorlash vazifalariga bog'langan holda bayon etiladi;

«Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)» o'quv fanining mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi, har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va qisqa ifodalar orqali ta'lim oluvchilarga davlat ta'lim standarti va malaka talablari asosida yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar qamrab olingan holda ifodalab beriladi. Asosiy nazariy qism modullar shaklida berilishi mumkin;

«Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar» o'quv fanining mohiyati va nazariy mavzulariga mos ravishda amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarining mavzulari, ushbu mashg'ulotlarni o'tkazish shakllari, unda qo'llanishi tavsiya etiladigan texnologiyalar, usullar, vositalar zarur hollarda muhokama etiladigan mavzular, masalalar, laboratoriya ishlarining mazmuni, maqsadi hamda fan mohiyatidan kelib chiqadigan boshqa ma'lumotlar yoritiladi. Shuningdek, kurs loyihasi va kurs ishlari, ijodiy ishlar mohiyati, mazmuni, maqsadi, mavzulari ularni bajarish shakllari hamda fan mohiyatidan kelib chiqadigan boshqa ma'lumotlar yoritiladi. Shu bilan birga ushbu qismda o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarining maqsadi, vazifasi, shakli, mazmuni, amaliyot jarayonida ta'lim oluvchilar tomonidan tayyorlanishi zarur bo'lgan yakuniy ishlar shakli yuzasidan qisqa uslubiy ko'rsatmalar beriladi;

«Mustaqil ta'lim va mustaqil mashg'ulotlar» qismida mustaqil ta'limning shakli va mazmuni, mustaqil ishga mo'ljallangan mavzular va topshiriqlar, mustaqil mashg'ulotlar jarayonida ta'lim oluvchilar tomonidan tayyorlanishi zarur bo'lgan ishlar referat, esse, mustaqil (ijodiy) ish, muammoli ma'ruza va boshqalar keltiriladi;

«Fanni o'qitish natijalari va shakllanadigan kasbiy kompetensiyalar» qismida ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik)ga muvofiq muayyan fan bo'yicha ta'lim oluvchi egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar bayon qilinadi;

«Talabalar kreditlarni olish tartibi» kredit-modul tizimida fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish (baholash) va kreditlarni olishga oid talablar o'rnatilgan tartibda belgilanadi;

Reyting (baholash) tizimi asosida ta'lim jarayonini amalga oshirayotgan oliy ta'lim muassasalari uchun — «Talabalar reytingini belgilash tartibi» reyting tizimida fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish (baholash) tartibi belgilanadi;

«Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari» o'quv faniga oid asosiy darsliklar, o'quv qo'llanmalar va qo'shimcha adabiyotlar, Internet jahon axborot tarmog'i resurslari, dissertatsiya, monografiya hamda boshqa tavsiya etilgan o'quv, ilmiy va uslubiy ma'lumotlar manbalari keltiriladi;

O'quv dasturning oxirgi betida uni ishlab chiqqan oliy ta'lim muassasasi nomi, tuzuvchilar ismi, familiyasi, lavozimi, ilmiy daraja va unvonlari, taqrizchilar ismi, familiyasi, ish joyi, lavozimi, ilmiy daraja va unvonlari, o'quv dastur ko'rib chiqilgan oliy ta'lim muassasasi kengashi bayonining raqami keltiriladi.

O'quv dasturlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va ta'lim jarayoniga joriy etish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

o'quv dasturlar o'quv rejalarda belgilangan har bir o'quv fani bo'yicha mazkur davlat standarti, «Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori», bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari hamda o'quv rejalarga muvofiq davlat oliy ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi;

O'quv dasturlar ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar maqsadi, vazifasi, mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib, fan mavzulari va mazmunini belgilangan tartibda mantiqiy ketma-ketlikda, o'quv faniga ajratilgan vaqt meyoriga amal qilgan holda shakllantiriladi. O'quv dasturlar mazkur davlat standartida belgilangan talablarga javob bergan holda Sillabus shaklida ham ishlab chiqilishi mumkin;

O'quv dasturning matni A-4 formatli standart varaqlarda, «Times New Roman» shriftining 14-o'lchamida, 1,15 intervalda, chap va o'ng tomonidan — 20, pastidan — 25, yuqoridan — 20 mm o'lchamida hoshiyalangan, betlarini raqamlanishi varaqning pastki qismining markazida joylashtirilgan holatda bostirib chiqariladi;

o'quv dasturlari tasdiqlanganidan so'ng A-5 formatida broshura shaklida chiqariladi;

Oliy ta'lim muassasalari tomonidan tayyorlangan o'quv dasturlari oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va o'quv rejalarga muvofiqligi hamda sifati nuqtai nazaridan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi tomonidan tanlab monitoring va tahlil qilinadi. Monitoring va tahlil natijalari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasiga olib chiqiladi va ularga baho beriladi;

Tasdiqlangan o'quv dasturlar belgilangan tartibda ikki nusxada rasmiylashtiriladi, ularning birinchi nusxasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazida, ikkinchi nusxasi tegishli oliy ta'lim muassasasida saqlanadi;

Ishlab chiqilgan va tasdiqlangan o'quv dasturlar (sillabuslar) ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) ta'lim shaklining tayanch o'quv dasturlari hisoblanadi. Bular asosida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (kechki (smenali), sirtqi

(maxsus sirtqi), masofaviy) ta'lim shakllari uchun belgilangan tartibda ishchi o'quv dasturlar ishlab chiqiladi va tegishli oliy ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti asosiy qoidalar O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 19 oktabrdagi 35-2021-son bo'yrug'i bilan tasdiqlangan.

Mazkur davlat standarti O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari, shuningdek YUNESKO (UNESCO) tomonidan joriy qilingan "Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi" (TXSK 2011) va "TXSK: Ta'lim va kasbiy tayyorlash sohalari"ga (TXSK-S 2013) muvofiq ishlab chiqilgan.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti:

-kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablarni;

-ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarli bilim darajasi hamda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan umumiy malakaviy talablarni;

-o'quv yuklamasining hajmini;

-ta'lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibotlari hamda mexanizmini belgilaydi.

Davlat ta'lim standartlari o'quv jarayonini, ta'lim muassasalari faoliyatini, kadrlar, darslik va o'quv qo'llanmalari tayyorlash sifatini baholashni tartibga soluvchi tegishli hujjatlarni (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari, o'quv rejalari, o'quv dasturlari va boshqalar) ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Davlat ta'lim standartlari oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashda idoraviy bo'ysunuv va mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining davlat ta'lim standartlari asosida kadrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari mustaqil ishlab chiqilgan va litsenziyada ko'rsatilgan o'quv dasturlari asosida ta'lim faoliyatini amalga oshirishlari mumkin.

Standartlar toifalari.

-Oliy ta'lim standartlari quyidagi toifalarga bo'linadi:

-O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta'lim standartlari:

-Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar;

-Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori.

-Oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishlarining o'quv rejalari va o'quv dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim bilan uzviylik va uzluksizligi ta'minlangan holda, oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining malaka talablari asosida ishlab chiqiladi. O'quv rejalar tarkibiga

o'zlashtirilishi majburiy bo'lgan fanlar (majburiy fanlar) bloki va tanlab o'zlashtiriladigan fanlar (tanlov fanlari) bloki kiradi.

Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda tegishli sohalarning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq o'quv rejalaridagi bloklar tarkibi o'zgartirilishi mumkin.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalar va o'quv dasturlarini o'zlashtirishda ta'lim oluvchilar auditoriya mashg'ulotlari bilan bir qatorda o'quv fanlari bo'yicha mustaqil mashg'ulotlarni bajarishi va mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining ta'lim jarayoni o'quv rejalariga muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanadi.

O'quv rejalar va o'quv dasturlar kredit-modul tizimi asosida ishlab chiqiladi. Ayrim (zarur) hollarda o'quv rejalar va o'quv dasturlar reyting (baholash) tizimi asosida ishlab chiqilishi mumkin.

O'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar:

majburiy fanlar bloki fanlarni chuqur o'zlashtirilishini taqozo etadi va ta'lim oluvchilarning intellektual salohiyatini boyitish, ta'lim yo'nalishi va sohaga oid zarur fundamental bilimlar, kasbiy ko'nikma, uquv va kompetensiyalarni shakllantirishi, bitiruvchiga tanlangan yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish hamda muayyan magistratura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga zamin yaratishi lozim.

tanlov fanlari bloki bakalavriat yo'nalishi bo'yicha ta'lim oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda kasbiy kompetensiyalari kengayishini ta'minlashi, ta'lim trayektoriyalariga muvofiq kasbiy bilim va malakalarni o'zlashtirishga imkon yaratishi lozim.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari malaka amaliyotlariga qo'yiladigan umumiy talablar.

Ta'lim oluvchilar kasbiy ko'nikmalarni mukammal egallashi uchun o'quv rejalar va muayyan fanlarning o'quv dasturlarida o'quv (tanishuv), ishlab chiqarish (klinik, ijodiy va boshqa) va bitiruv oldi malaka amaliyotlari nazarda tutilishi shart.

Amaliyotlar bakalavriat ta'lim jarayonining majburiy qismi bo'lib, talabalarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko'nikmalari va kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltiriladi.

Bakalavrlar tayyorlashda malaka amaliyotlari:

o'quv (tanishuv) amaliyoti — iqtisodiyot tarmoqlari, tegishli tashkilot, muassasa va korxonalar bilan tanishtirish, tabiiy-ilmiy va umumkasbiy fanlar bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratiladi;

ishlab chiqarish amaliyoti — umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan

uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

bitiruv oldi amaliyoti — ishlab chiqarishda (tegishli soha korxona, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma'lumot to'plash va tizimlashtirishga qaratiladi;

pedagogik amaliyot — kasb ta'limi yo'nalishlari uchun qo'llaniladi va pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq malaka amaliyotlarining boshqa turlari ham qo'llanilishi mumkin.

Har bir amaliyot turi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari va real sektorning tegishli ilg'or korxona, tashkilot va muassasalari, xorijiy va qo'shma korxonalar, ilmiy tashkilotlar, ta'lim, tibbiyot, madaniyat va boshqa muassasalarida, dala sharoitlarida, maxsus tajriba (poligon) obyektlarida va boshqalarda o'tkaziladi.

Amaliyotlarni tashkil qilish, o'tkazish va talabalarni baholash mezonlarini belgilash oliy ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejalari va o'quv dasturlari mazmuni oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning birlamchi va boshlang'ich bosqichi sifatida mutaxassislik bo'yicha chuqur fundamental va amaliy bilimlar berishni nazarda tutgan holda shakllantiriladi.

Oliy ta'lim magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejalari va o'quv dasturlari bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejalari va o'quv dasturlari bilan uzviylik va uzluksizligini ta'minlagan holda oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari asosida ishlab chiqiladi. O'quv rejalari tarkibiga o'zlashtirilishi majburiy bo'lgan fanlar (majburiy fanlar) bloki, tanlab o'zlashtiriladigan fanlar (tanlov fanlari) bloki va ilmiy faoliyat bloki kiradi.

Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda tegishli sohalarning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq o'quv rejalariidagi bloklar tarkibi o'zgartirilishi mumkin.

Magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejalari va o'quv dasturlarini o'zlashtirishda ta'lim oluvchilar auditoriya mashg'ulotlari bilan bir qatorda o'quv fanlari bo'yicha mustaqil mashg'ulotlarni bajarishi va mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Magistratura mutaxassisliklarining o'quv jarayoni o'quv rejalariiga muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi (magistrlik dissertatsiyasining himoyasi) bilan tugallanadi.

O'quv rejaning o'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan minimal talablar:

majburiy fanlar bloki ilmiy tadqiqot metodologiyasi, ilmiy izlanish va tahlil, empirik va nazariy tadqiqot usullari, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, pedagogik

texnologiyalar, ta'limning zamonaviy usullari, mutaxassislikka doir dolzarb va chuqur ilmiy, metodologik, ilmiy-texnik, texnologik bilim, uquv, ko'nikma va kompetensiyalarni ta'lim oluvchilarda shakllantirishi hamda muayyan doktorantura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga zamin yaratishi lozim.

tanlov fanlari bloki mutaxassislik bo'yicha ta'lim oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda ilmiy, pedagogik va kasbiy kompetensiyalarini kengayishini ta'minlashi, ta'lim trayektoriyalariga muvofiq magistr darajasidagi kasbiy bilim va malakalarni o'zlashtirishga imkon yaratishi lozim.

ilmiy faoliyat bloki ilmiy-tadqiqotlar nazariyasi va amaliyoti o'zlashtirilishini, ta'lim oluvchilar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida muayyan ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

Bunda:

ilmiy-tadqiqot amaliyoti ta'lim oluvchilar mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi, ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, ularning natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, zamonaviy axborot bazalarini qo'llash, ilmiy maqolalar va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashga doir bilim, uquv va ko'nikmalarni shakllantirishi lozim;

ilmiy-pedagogik amaliyoti zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirishi, o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etishga doir kompetensiya va ko'nikmalarni hosil qilishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot amaliyoti taqozo etganda yakka tartibda ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tajriba orttirish jarayoni tashkil etiladi. Bunda tajriba orttirish jarayoniga yo'llangan ta'lim oluvchi o'quv jarayoni jadvalini yakka tartibdagi ish rejasi asosida bajarishi ko'zda tutiladi.

tajriba orttirish ta'lim oluvchilarning ilmiy-tadqiqot olib borishi, nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtirish, muayyan soha va tarmoqdagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishishi, amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllanishi, kasbga samarali moslashuvini ta'minlashi lozim.

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv rejalar ta'lim davrining to'liq meyoriy muddati uchun (birinchi kursdan yakuniy kursgacha) ishlab chiqiladi va bu davrda ularga o'zgartirish kiritish, ularni bekor qilish, o'rniga boshqa o'quv reja ishlab chiqib tatbiq etishga yo'l qo'yilmaydi.

Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan talablar bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablarida bayon etiladi.

Bakalavrning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil samarali mehnat faoliyatini yuritishini ta'minlashi hamda tegishli mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirish imkonini berishi lozim.

Magistrning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari mutaxassislik bo'yicha magistr akademik darajali shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va kasbga doir boshqaruv faoliyati bilan samarali shug'ullanishini ta'minlashi, tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'limda (tayanch doktorantura, mustaqil izlanuvchi) tahsil olish imkonini berishi lozim.

Bakalavr va magistrnlarni tayyorlash oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturi asosida kunduzgi, kechki (smenali), sirtqi (maxsus sirtqi) va zarur hollarda masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Ta'lim jarayoni kredit-modul tizimi asosida amalga oshiriladi. Ayrim (zarur) hollarda ta'lim jarayoni reyting (baholash) tizimi asosida amalga oshirilishi mumkin.

O'quv dasturlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan bakalavriat ta'lim oluvchilariga «bakalavr» akademik darajasi, magistrlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan magistratura ta'lim oluvchilariga «magistr» akademik darajasi hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjatlar beriladi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlar («Double degree») asosida ham amalga oshiriladi. Bunda ta'lim jarayoni davlat ta'lim standartlariga tayangan holda mahalliy yoki mahalliy va xorijiy oliy ta'lim muassasalari o'rtasida tuzilgan kelishuv (shartnoma)da belgilangan talablar asosida tuziladigan hamda belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv reja va o'quv dasturlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarining ta'limni davom ettirish imkoniyatlari:

bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining bitiruvchilari magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'qishni davom ettirish huquqiga ega. Muayyan bakalavriat yo'nalishlari uchun o'qishni davom ettirish bo'yicha magistratura mutaxassisliklarining ro'yxatini oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi belgilaydi;

magistratura mutaxassisliklarining bitiruvchilari tayanch doktorantura, doktorantura yoki mustaqil izlanuvchilik institutlarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini belgilangan tartibda amalga oshirishi mumkin.

O'quv yuklamasining hajmi, Bakalavriat - barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining hajmi

bir o‘quv yili uchun 60 kredit, bir semestr uchun 30 kredit qilib belgilanadi. 1 kredit 30 akademik soat o‘quv yuklamasiga tengdir.

Reyting (baholash) tizimi asosida ta’lim jarayonini amalga oshirayotgan oliy ta’lim muassasalari uchun barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o‘quv ishlarini o‘z ichiga olgan o‘quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 akademik soat qilib belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o‘qish shakli uchun auditoriya mashg‘ulotlarining hajmi haftasiga:

kredit-modul tizimi asosida ta’lim jarayoni amalga oshirilayotganda 22 — 32 akademik soat oraligida;

reyting (baholash) tizimi asosida ta’lim jarayoni amalga oshirilayotganda 22 — 36 akademik soat oraligida belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (kechki) o‘qish shakli uchun bir haftada odatda besh kun, auditoriya mashg‘ulotlarining eng yuqori hajmi haftasiga 20 soat qilib belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (sirtqi, maxsus sirtqi) o‘qish shakli uchun auditoriya mashg‘ulotlarining hajmi ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o‘qish shaklining kamida 30% etib belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o‘qish shakli uchun o‘qishning meyoriy muddati quyidagicha taqsimlanadi:

O‘qish muddati*	Haftalar soni	Kreditlar miqdori	Akademik soatlar miqdori
3 yil	152	180	5 400
4 yil	204	240	7 200
5 yil	256	300	9 000
6 yil	308	360	10 800

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (kechki, sirtqi, maxsus sirtqi) o‘qish shakli uchun kreditlar miqdori kunduzgi o‘qish shakli kreditlariga mos qilib olinadi.

O‘quv davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanadi:

O‘quv davrlari	Sog‘liqni saqlash ta’lim sohasidan tashqari barcha ta’lim sohalari uchun, % hisobida*	Sog‘liqni saqlash ta’lim sohasi uchun, % hisobida
Nazariy va amaliy ta’lim	40 — 65	50 — 70
Shu jumladan, auditoriya (kontaktli) va mustaqil ta’limning nisbati	40/60 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha	

Attestatsiya	6 — 15	8 — 15
Ta'til**	8 — 21	10 — 18
Malaka amaliyoti	6 — 25	6 — 20
Bitiruv malakaviy ishi***	2 — 7	2 — 5

* *Ayrim yo'nalishlarning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, ta'lim jarayoni zaruratiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda ular uchun mazkur foizlarga o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yiladi.*

** *Qishki ta'til ikki haftadan oshmasligi maqsadga muvofiq.*

*** *Bitiruv malakaviy ishi tarkibiga uni himoya qilish bo'yicha Davlat attestatsiyalari ham kiradi.*

Barcha ta'lim sohalari uchun nazariy va amaliy ta'lim hajmining kamida 85 % umumkasbiy va ixtisoslik (maxsus) fanlaridan tashkil topgan majburiy va tanlov fanlari bloklaridan iborat bo'lishi lozim.

O'quv rejalaridagi majburiy va tanlov fanlari bloklarining hajmini ta'lim yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, o'quv rejani ishlab chiqaruvchi oliy ta'lim muassasasi belgilaydi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari ta'lim oluvchilarining malaka amaliyotini o'tash tartibi va bitiruv malakaviy ishini bajarish tartibi oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruv organi tomonidan belgilanadi.

Kredit tizimi xalqaro tamoyillariga asoslanib fanlar katalogini tizimlashtirish va maqbullashtirish maqsadida o'quv rejalarda kreditlar kurs va semestrlar bo'yicha taqsimotini quyidagicha belgilash tavsiya etiladi:

O'quv faniga ajratilgan soat*	Fanning bir va ikki semestr davomida o'tilishiga qarab ajratiladigan kreditlar	
	1-semestr	2-semestr
120	4	-
180	6	-
240	4	4
300	4	6
360	6	6

* *Ushbu taqsimot magistraturaga ham taalluqli.*

Magistratura-barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining hajmi bir o'quv yili uchun 60 kredit, bir semestr uchun 30 kredit qilib belgilanadi. 1 kredit 30 akademik soat o'quv yuklamasiga tengdir.

Reyting (baholash) tizimi asosida ta'lim jarayonini amalga oshirayotgan oliy ta'lim muassasalari uchun barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv

ishlarini o‘z ichiga olgan o‘quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 akademik soat qilib belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o‘qish shakli uchun auditoriya mashg‘ulotlari va ilmiy faoliyatning eng yuqori hajmi haftasiga 36 akademik soat qilib belgilanishi lozim.

O‘qishning meyoriy muddati quyidagicha taqsimlanadi:

O‘qishning meyoriy muddati*	Haftalar soni	Kreditlar miqdori	Akademik soatlar miqdori
1 yil	50	60	1800
2 yil	100	120	3600
3 yil	152	180	5400

** Kunduzgi o‘qish shakli tayanch sifatida olinadi.*

O‘qish davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanadi:

O‘qish davrining tarkibiy qismlari	Sog‘liqni saqlash ta’lim sohasidan tashqari barcha ta’lim sohalari uchun, % hisobida*	Sog‘liqni saqlash ta’lim sohasi uchun, % hisobida	
		Davolash faoliyati bilan tutashgan mutaxassisliklar	Davolash faoliyati bilan tutash bo‘lmagan mutaxassisliklar
Nazariy va amaliy ta’lim	30 — 55	45 — 55	30 — 55
Shu jumladan, auditoriya (kontaktli) va mustaqil ta’limning nisbati	30/70 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha		
Attestatsiya	4 — 18	4 — 10	4 — 10
Ta’tillar**	6 — 21	10 — 20	10 — 20

Ilmiy faoliyat magistratura ta’lim oluvchilarining yakka tartibdagi taqvimiy ish rejasi asosida amalga oshiriladi va quyidagilarga bo‘linadi:

ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash — 60 — 75 %;

ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti — 25 — 40 %.

Barcha ta’lim sohalari uchun nazariy va amaliy ta’lim hajmining kamida 95 % umummetodologik va mutaxassislik fanlaridan tashkil topgan majburiy va tanlov fanlari bloklaridan iborat bo‘lishi lozim.

Magistratura mutaxassisliklari talabalarining ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash tartibi va malaka amaliyoti (tajriba orttirish)ni o‘tash tartibi oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Kadrlar tayyorlash sifati va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini baholash-bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari professor-o'qituvchilari tarkibiga qo'yiladigan umumiy talablar.

Bakalavriat o'quv rejasi va o'quv dasturini amalga oshirishda o'qitilayotgan fan bo'yicha tayanch ma'lumotga, bilimga, malaka va ko'nikmaga ega bo'lgan malakali o'qituvchilar (magistr yoki diplomli mutaxassislar), fan nomzodlari, falsafa doktori (PhD), dotsentlar, fan doktori (DSc), professorlar, ilmiy, pedagogik va ijodiy unvonlarga ega bo'lgan shaxslar, shuningdek tajribaga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassis va amaliyotchilar jalb etilishi lozim.

Magistratura o'quv rejasi va o'quv dasturini amalga oshirishda o'qitilayotgan fan bo'yicha fan nomzodlari, falsafa doktori (PhD), dotsentlar, fan doktori (DSc) va professorlar, ilmiy, pedagogik va ijodiy unvonlarga (darajalarga) ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassis va amaliyotchilar jalb etilishi lozim.

Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish quyidagilardan iborat:

ichki nazorat oliy ta'lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi. Ichki nazorat oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan tegishli ravishda belgilangan reyting (baholash) tizimi hamda kredit-modul tizimi mezonlarga muvofiq o'rnatilgan tartibda o'tkaziladi;

bitiruvchilarning yakuniy nazorati oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining o'quv rejalariga muvofiq bakalavriatda o'quv fanlari bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi va (yoki) bitiruv malakaviy ishi himoyasi, shuningdek magistraturada magistrlik dissertatsiyasining himoyasi shaklida amalga oshiriladi;

davlat-jamoatchilik nazorati oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruv organi, jamoat tashkilotlari va kadrlar buyurtmachilari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

tashqi nazorat belgilangan tartibda oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan amalga oshiriladi.

2-MAVZU:OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGINING TA'LIM VA TARBIYA JARAYONLARINI TASHKIL ETISHGA OID BUYRUQLARI. (2 soat).

Reja:

Seminar-trening mashg'ulotining maqsadi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligining Davlat ta'lim standartlari, ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining Malaka talablari, o'quv rejalar, fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablar va o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishga oid buyruqlari asoslarni o'zlashtirish va amaliyotga tadbqiq etish.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2017-yil 21-apreldagi "Vazirlik tasarrufidagi Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining lavozimlariga qo'yiladigan malaka talablarini tasdiqlash to'g'risida"gi 240-sonli buyrug'i.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 10-sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va "Ustoz-shogird" ishlarini belgilash qoidalari"ni tasdiqlash to'g'risida"gi 20-2018-son buyrug'i.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 15-yanvardagi "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modu tizimini joriy etishning tashkiliy masalalariga taalluqli hujjatlar namunalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 30-son buyrug'i.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2022-yil 13-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalari talabalarining malaka amaliyotini o'tash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 202-son buyrug'i.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2022-yil 22-avgustdagi "O'quv adabiyotlarini tayyorlash tartibi xamda o'quv adabiyotlarini yaratishga va ulardan oliy ta'lim muassasalarida foydalanishga qo'yiladigan talablarni belgilash to'g'risida"gi 284-son buyrug'i.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 9-iyundagi "Oliy ta'limning meyoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-son buyrug'i.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 2-dekabrdagi "Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar bilimni baxolashdagi norozilik bo'yicha apelyatsiya arizalarini ko'rib chiqish va talabalarning dars mashg'ulotlariga ishtirok etishini tartibga solish to'g'risida"gi 451-son buyrug'i.

Seminar-trening mashg'uloti natijasida tinglovchi:

- ma'ruza yuzasidan yangi tegishli tushuncha, bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi;

- ma'ruza bo'yicha tegishli misollar va masalalar ustida ishlash, o'z munosabatini bildirish, tegishli moddiy va protsessual qonun normalarini qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'ladi;

- o'z javobini asoslash, tanqidiy fikrlash, opponentni eshitish ko'nikma va qobiliyatini shakllantirishga erishiladi;

- Prezintatsiya orali tasavvur, mushohada va qiyosiy tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

V.Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.:O'zbekiston, 2023.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida” PF-5789-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” PF-5847-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” 60-son Farmoni. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023 y., 06/23/21/0085-son)
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda “Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 60-son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2021 yil 25 dekabr.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 24 dekabrda “Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida” 61-son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2021 yil 25 dekabr.

III. Maxsus adabiyotlar

13. Oliy ta'limning me'yoriy - huquqiy hujjatlari to'plami. -T., 2013.
14. The European Higher Education Area. - Joint Declaration of the Ministers of Education. - Bologna, 1999, 19 June.

15. Shaping our Own Future in the European Higher Education Area // Convention of European Higher Education Institutions. - Salamanca, 2001, 29-30 march.

16.Topildiyev V.R. Masofaviy ta'lim xususida ayrim mulohazalar. 2023. *Journal of Integrated Education and Research*, 2 (2), 51-60 betlar.

17.Topildiyev V.R. Oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari. –T., 2018. - 356 b.

18.Topildiyev, V.R., Oliy ta'lim tizimini isloh qilishning me'yoriy-huquqiy ta'minoti xususida ayrim mulohazalar // *Современное образование*, 2017.(6), 8-1.

IV. Internet saytlar

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.norma.uz>
3. <http://www.yuz.uz>
4. [http:// www.strategy.uz](http://www.strategy.uz)
5. <https://president.uz>
6. [http:// www.edu.uz](http://www.edu.uz)
7. [http:// www.lib.bimm.uz](http://www.lib.bimm.uz)



 lib.bimm.uz



 bimm.uz



 [bimm_uz](https://t.me/bimm_uz)